Birinchi navbatda logistik xarajatlarni korxonada faoliyatiga bog`liqligini inobatga olgan holda tahlil qilish, korxonada faoliyatiga qarab xarajatlar hisobini yuritish nuqta nazaridan hamda uni tahlil qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda, tahlilning asosiy vazifasi logistik xizmatlar ko`rsatish asosiy faoliyati logistik xizmatlarni ko`rsatish bo`lgan subyektlarning asosiy faoliyat xarajatlarini aniqlash, tahlil qilish hamda olingan asosiy faoliyat daromadlariga muvofiqligini aniqlashdan iborat bo`lishi kerak.

Bunda asosiy faoliyati logistik xizmat ko`rsatish bo`lgan xo`jalik yurituvchi subyektlar uchun, xarajatlarni quyidagi guruhlariga bo`lish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq:

- asosiy faoliyat bilan bog`liq xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- xizmatlar tannarxiga kiritiladigan asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar;
- asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan boshqa xarajatlar.

Asosiy faoliyat bilan bog`liq xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga bevosita logistik xarajatlarni ko`rsatish jarayonida xizmatlar tannarxini tashkil qiluvchi xom-ashyo va materiallarning sarflanishi, yoqilg`i-energetika xarajatlari, mehnat haqi va u bilan bog`liq boshqa xarajatlar, asosiy faoliyatda xizmat ko`rsatuvchi asosiy vositalarning amortizatsiya xarajatlari va boshqa shu kabi bevosita logistik korxonaning asosiy vositalari bilan bog`liq xarajatlarini kiritish lozim.

Bu xarajatlar oxir-oqibat logistika korxonasining asosiy faoliyatiga ta`sir qilib, uning asosiy faoliyatdan olingan foydasini kamayishiga olib keladi. Shu bois, logistik korxonalar tahlil jarayonida xarajatlarni mazkur yo`nalishda tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odatda xizmatlar tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar bevosita asosiy faoliyatga aloqasi bo`lmay, bevosita mahsulot, ish yoki xizmatning tannarxiga

kiritish imkoniyati bo`lmaydi. Biroq logistik korxonalarining o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo`lsak, tashish bilan bog`liq ayrim xarajatlar borki, bunday xarajatlar bevosita asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmay, amaldagi qonunchilik talablariga ko`ra, mazkur xizmatlar tannarxiga kiritilmasligi kerak, biroq bunday xarajatlar asosiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida sodir bo`lishi, jumladan, xalqaro tashishlar jarayonida yuzaga keladigan jarayonlar bilan bog`liqligi, bunday xarajatlar tahlilini alohida amalga oshirish lozimligini keltiradi.

Asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan boshqa xarajatlar esa, bevosita asosiy faoliyatga aloqasi bo`lmagan, ammo, logistik korxonalarda amalga oshiriladigan, ayrim davr xarajatlari, moliyaviy operatsiyalar bilan bog`liq xarajatlar, soliq bilan bog`liq xarajatlar kiritiladi.

Yuqorida keltirib o`tilgan xarajatlar tarkibini bunday guruhlashdan maqsad, xarajatlarni samaradorligi, ya`ni, asosiy faoliyat bilan bog`liq xarajatlarning jami xarajatlardagi ulushi, asosiy faoliyat bilan bog`liq daromadlar bilan taqqoslab o`rganish, ularning nisbatiga baho berish hisoblanadi.

Logistik korxonalarini tahlilida hisobga olinmaydigan, yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, ikkinchi daraja sifatida qaraladigan buxgalteriya hisobi obyektlari borki, shunchaki xarajat tarkibi emas, faoliyat logistika xizmatini ko`rsatish subyekti bo`lgan korxonalar bunday buxgalteriya hisobi obyektlari tahlilini amalga oshirishi lozim.

Jumladan, logistik korxonalarda aktivlarni tahlil qilish, ularning tarkibiy tuzilishiga baho berish, har bir faoliyatga xos aktivning umumiy aktivlarga nisbatiga baho berish lozim. Bunda asosiy vositalarning eskirish va yangilanish koeffitsientlari, debitorlik qarzlarning aylanish davrini ifodalovchi ko`rsatkichlari tizimiga, shu bilan birga aktivlar rentabelligiga alohida e`tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Jumladan, asosiy vositalarning eskirish koeffitsientini aniqlash, unga aniq norma qo`yish masalasi doimo diqqat markazimizda bo`lib, bu aktivlarning foydalanish darajasiga yoki tarmoq xususiyatidan kelib chiqmagan holda tavsiyalar beriladi. Ammo, logistika korxonalarining o`ziga xos xususiyati borki, bundan

asosiy e'tibor tashishda foydalanishi, saqlashda ishlatilishi yoki realizatsiya jarayoniga bog'liqligiga qarab ularning eskirish koeffitsienti darajasiga baho berish lozim.

Logistik korxonalarda shunday holatlar ham bo'ladiki, tashish xizmatlarini bajaruvchi harakatdagi tarkib (tashish transportlari) bir vaqtning o'zida saqlash vazifasini ham bajaradi. Shu bois, asosiy vositalarning eskirish darajasi, unga hisoblanadigan amortizatsiya xarajatlari ham mana shunday xususiyatlarni inobatga olgan holda belgilanishi, hisobi hamda tahlili amalga oshirilishi lozim.

Logistik korxonalarda yana bir muhim masala borki, bu tashish xarajatlari yoki saqlash xarajatlarini amalga oshirgandan keyingi debitorlik qarzlarning vujudga kelishi va so'ndirilishining davriyligidir. Bu borada tahlilda ko'riladigan masala, debitorlik qarzlarning aylanish davrini o'rganish va unga baho berishdir. Logistik korxonalarda debitorlik qarzlarning paydo bo'lishi va uning so'ndirilishi ham bir me'yorda, aniq zamonda amalga oshmaydi. Ayrim debitorlik qarzlarning vujudga kelishi va so'ndirilishi bir necha kunni tashkil qilsa, ayrimlarining shakllanishi ham uning so'ndirilishi ham uzoq muddatni talab etadi.

Shu bois, logistik korxonalarda debitorlik qarzlari tahlilini amalga oshirishda debitorlik qarzlarni ularning davrlarga bo'lgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Shu bilan bog'liq yana bir masala borki, bu bevosita debitorlik qarzlarning tashkil topish manbaidir. Odatda logistik xarajatlarning aksariyati bevosita ta'minot jarayoni bilan bog'liq bo'lib, debitorlik qarzlari ham aynan shu yo'nalishda bo'ladi. Tahlil jarayonida mazkur xususiyat ham inobatga olinishi kerak.

Logistik korxonalarida xalqaro tashishlarning amalga oshirilishi bevosita, turli mamlakatlar chegaralaridan o'tish orqali o'sha mamlakatning mahsulot, ish va xizmatidan foydalanishiga olib keladi. Shu bois, mazkur jarayonda turli mamlakatlardan xarid qilinadigan xom-ashyo, yoqilg'i va ehtiyot qism va boshqa xarajatlar hisobini yuritish hamda tahlil qilish zaruriyati vujudga keladi. Bu esa, birinchi navbatda xorijiy valyuta bilan bog'liq munosabatlarni hisob va tahlil nuqtai nazaridan o'rganishni talab etadi.

O`zbekiston Respublikasida mahalliy va xorijiy xizmat safari bilan bog`liq masalalarni tartibga soluvchi me`yoriy-hujjatlar mavjud bo`lib, aynan logistik korxonalaridan bir necha kundan oygacha, bir davlatdan bir necha davlatlar orqali boshqa mamlakatlarga etib borish va qaytish jarayoni mazkur normalarni ham aynan tarmoq xususiyatini inobatga olib moslashtirishni talab etadi. Bu esa, nafaqat xorijiy valyuta bilan bog`liq turli operatsiyalarni balki, mehnatga haq to`lash bilan bog`liq xarajatlar to`g`ri hisobga olish va natijaga qaratilgan, samarali tahlilini tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Logistik korxonalarda biz tomonimizdan e`tibor qilinishi lozim bo`lgan navbatdagi masala mazkur korxonalarining bevosita daromadlilik, foydalilik ko`rsatkichlarini tahlil qilish lozimligi bo`lib, yuqoridagilardan ko`rinib turibdiki, bu korxonalarining daromad va xarajatlarning hisobi va tahlili ham anchagina aniqlikni talab etadi.

Logistik korxonalarining daromadlilikini ifodalovchi asosiy ko`rsatkichlardan biri bu rentabellikni ifodalovchi ko`rsatkichlar bo`lib, bunday korxonalar uchun rentabellikni hisoblash metodikasi ham tarmoq xususiyatidan kelib chiqib, ishlab chiqilishi lozim.

Logistik korxonalarining foyda yoki zarar ko`rsatkichlari tahlil qilinganda, ularning foydasiga ta`sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish bunday ko`rsatkichlarni aniq hisoblash va samarali xulosalar chiqarishga olib keladi.

Butun dunyoda jumladan, O`zbekistonda ham o`z ta`sirini o`tkazgan koronavirus pandemiyasi logistik korxonalarining ham daromad va xarajatlari tarkibiga sezilarli ta`sir ko`rsatdi. Shu bois, logistik korxonalar tahlilini amalga oshirish, uning foydalilik darajasini, barqarorligini, rentabelligini ifodalovchi ko`rsatkichlarni hisoblashda aynan mana shu pandemiya jarayonlarini ham inobatga olish lozim.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar asosida, shunday xulosaga kelindiki, turli pandemiyalar davrida, logistik korxonalarining xarajatlari oshishi yoki keskin tushib ketishi ham mumkin. Buning sababi, logistika faoliyatiga bevosita bog`liq. Ya`ni, 2020-2021-yillardagi pandemiya sharoitlarida ham hamma

logistik korxonalar ham faoliyatini zarar bilan yakunladi deya olmaymiz. Sababi, pandemiya vaqtida barcha sohalar to`xtatilgan bo`lsa ham yuklarni, dori-darmonlarni tashish xizmatlari diqqat markazida bo`ldi.

Logistik korxonalarda alohida sifatida o`rganilishi kerak bo`lgan navbatdagi tahlil obyektini bu bevosita mehnatga haq to`lash bilan bog`liq xarajatlar tahlilidir. Nega aynan bunga e`tibor qaratilishi lozimligi, ayniqsa pandemiya sharoitida xalqaro tashish xizmatlari bilan bog`liq xizmatlarni ko`rsatuvchi korxonalar tomonidan turli mamlakatlarga yuklarni yuk avtomobillarida tashish va mazkur tashish jaraniyoda kasallik xavfining yuqori bo`lganligida ancha muhokama qilinadigan masala ekanligini ko`rsatib berdi.

Bizning fikrimizcha, nafaqat mahalliy tashish balki, xalqaro tashish bilan shug`ullanadigan logistik korxonalarda mehnatga haq to`lash, xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash xarajatlarini to`g`ri tashkil qilish, bunday xarajatlar tarkibiga xodimlarni tibbiy bilimini oshirish, milliy tibbiy sug`urtasini amalga oshirish xarajatlarini kiritish maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari logistik korxonalarda xizmatlarni ko`rsatish bilan bog`liq jarayonlarda daromad hamda xarajatlarni hisob nuqtai nazaridan tan olish masalalarini ham ko`rish maqsadga muvofiq.

Birinchi bob bo`yicha xulosalar

Dissertatsiyaning birinchi bobi bo`yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

Tadqiqotlarda logistika keng tushuncha ekanligi qayd etilib, mutaxassislar tomonidan turlicha yondashilgan. Transportda tashish, ortish-tushirish, ombordagi kirimi va chiqimini yuritish kabi tor ma`noda tushunmaslik lozim. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda logistikani material oqimini birlamchi manbasidan oxirgi iste`molchisiga etkazib bergunga qadar tovar harakati to`g`risidagi ma`lumotlarni shakllantirish asosida boshqarish tushuniladi.

Mamlakatimizda transport logistikasi rivojlanib borar ekan, mazkur sohani hisob-axborot bilan ta`minlash, doimiy kuzatishlar va o`rganishlar asosida tahlil

ishlarini amalga oshirish hamda nazorat qilish orqali prognoz ko`rsatkichlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, aksariyat tadqiqotlarda logistik xarajatlar hisobi yuritilishi bo`yicha o`rganishlar qilingan, biroq logistik korxonalar tomonidan yuqori samaradorlikka erishish uchun faqatgina mazkur obyekt hisobini yuritish etarli emas. Shu bois, fikrimizcha, logistik xarajatlar hisobini yuritish har qanday korxonada nuqta nazaridan samarali tashkil qilinishi lozim bo`lsa, aynan logistika faoliyati bilan shug`ullanadigan subyektlar uchun buxgalteriya hisobining asosiy obyektlari hisobini optimallashtirish, takomillashtirish zaruriyati paydo bo`ladi.

Logistik korxonalarda xarajatlar hisobini yuritishda biror bir usul tanlash mazkur korxonaning xususiyatidan kelib chiqib amalga oshirilishi lozim. Jumladan, logistik xizmatini amalga oshiruvchi korxonada yoki korxonaning o`z ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda logistika xizmatini ko`rsatish.

Biz tomonimizdan olib borilgan nazariy tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, logistik korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish, uning natijasi bo`yicha asoslangan xulosalar chiqarish hamda samarali iqtisodiy, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tarmoqning rivojlanishiga sezilarli ta`sir o`tkazadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan ko`pgina o`rganishlardan shunday xulosa qilish mumkinki, logistik faoliyatining tahlilini amalga oshirish yoki uning hisobini yuritish masalalarida asosiy e`tibor, xarajatlar hisobi va xarajatlar tahliliga qaratilgan. Ammo, shu bilan birgalikda, asosiy faoliyati logistik xizmatlarni ko`rsatish bo`lgan, xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida buxgalteriya hisobining boshqa obyektlari, jumladan, aktivlar, xususiy kapital, daromad va xarajatlar, foyda va zararlar bilan bog`liq munosabatlar hisob obyektini sifatida alohida tadqiq qilinmagan.

Bizning fikrimizcha, xarajatlar nuqtai nazaridan qaralganda ham xarajatlar tahlilini amalga oshirishda quyidagi jihatlarga e`tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- logistik xarajatlarning faoliyat turiga bog`liqligi, ya'ni, asosiy faoliyat turi logistik faoliyat bo`lgan subyektlarda logistik xarajatlarning tarkibiy tuzilishi tahlili;

- logistik xarajatlarni xizmatlar tannarxiga olib borish usullari;

- logistik xizmatlar tannarxiga kiritilmaydigan boshqa xarajatlar tahlilini amalga oshirish hamda bunday xarajatlarning umumiy xarajatlar tarkibidagi ulushi;

- logistik faoliyatni amalga oshirishda tashqi omillar bilan bog`liq xarajatlar, soliq siyosatining o`zgarish, xorijiy mamlakatlar bilan bog`liq xalqaro tashishlarni amalga oshirish xarajatlarining o`ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Asosiy faoliyati logistik xizmat ko`rsatish bo`lgan xo`jalik yurituvchi subyektlar uchun, xarajatlarni quyidagi guruhlariga bo`lish orqali tahlil qilish maqsadga muvofiq:

- asosiy faoliyat bilan bog`liq xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;

- xizmatlar tannarxiga kiritiladigan asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan xarajatlar;

- asosiy faoliyat bilan bog`liq bo`lmagan boshqa xarajatlar.

Asosiy faoliyat bilan bog`liq xizmatlar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibiga bevosita logistik xarajatlarni ko`rsatish jarayonida xizmatlar tannarxini tashkil qiluvchi xom-ashyo va materiallarning sarflanishi, yoqilg`i-energetika xarajatlari, mehnat haqi va u bilan bog`liq boshqa xarajatlar, asosiy faoliyatda xizmat ko`rsatuvchi asosiy vositalarning amortizatsiya xarajatlari va boshqa shu kabi bevosita logistik korxonaning asosiy vositalari bilan bog`liq xarajatlarini kiritish lozim.

II BOB. LOGISTIK KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA IQTISODIY TAHLILNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI

2.1-§. Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil qilishning uslubiy asoslari

Logistik korxonalarda hisob yuritish masalalari bo'yicha tadqiqot olib borilganda shunga amin bo'ldikki, bunday korxonalaridagi asosiy muammolar sifatida xarajatlarni guruhlash, ular tarkibini to'g'ri shakllantirish, ish, xizmatlar tannarxini shakllantirishda bunday xarajatlarning o'rniga baho berish masalalari mazkur yo'nalishdagi aksariyat tadqiqotlarning diqqat markazida bo'lgan.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar hisobini yuritish, hisob jarayonini to'g'ri tashkil qilinishi nafaqat shunchaki hisob jarayoni aniqligini ta'minlaydi, balki butun korxonaning kelajagini, daromadlarini, rentabelligini, barqarorligini va boshqa bir qancha ko'rsatkichlarni o'zgarishini keltirib chiqaradi. Ammo, amaliyotda asosi bo'lmagan va boshqarish qiyin bo'lgan, boshqarib bo'lmaydigan xarajatlar ham bo'ladiki, bunday xarajatlar ko'pchilik xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy va dolzarb muammolaridan biriga aylanadi. Subyekt doimo mazkur xarajatlarning hisobini yuritishni takomillashtirishi, bu xarajatlar hisobini tashkil qilish va yuritishda ehtiyotkor bo'lishi, eng asosiy korxonalar kelajagi bilan bog'liq qarorlar chiqarishda bunday xarajatlarni chuqur tahlil qilgan holda samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishi lozim bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlarni kamaytirish, uni optimallashtirish uchun doimiy chora-tadbirlar qilinishiga olib keladi. Eng muhimi mazkur choralarni aniq ishlash tartibi bo'lmasa ular ham naf bermaydi va xarajatlar yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, korxonalarining turli iqtisodiy ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Shu bois, xo'jalik yurituvchi subyektlarda xarajatlar hisobini yuritish va uni doimo tahlil qilib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan asosiy e'tiborni xarajatlarni tarkiblarga bo'lish orqali aniq hisobini yuritish va samarali tahlilni amalga oshirish mumkin.

Biz tomonimizdan tadqiqot ishi doirasida aynan xarajatlar alohida tarkibi sifatida o'rganilib kelayotgan xarajatlar tarkibiga e'tibor qaratib, logistik xarajatlar

tarkibini va uning hisobini yuritish masalalariga to`xtalib o`tamiz. Bu jarayonda birinchi navbatda bu xarajat turining mazmun mohiyatini yanada chuqurroq o`rganishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Logistika xarajatlari haqida so`z yuritilganda turli manbalar va olimlarning tadqiqotlari asos qilib olinadi. Bu bo`yicha bir qancha adabiyot va ilmiy manbalarda turli fikr-mulohazalar va ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Jumladan, L.B. Mirodin muallifligidagi adabiyotda logistika xarajatlari allaqachon mavjud bo`lgan tasniflarining kamchiliklaridan biri ularni xarajatlar moddalari va iqtisodiy elementlar bo`yicha guruhlashning aralash belgilaridan foydalanish ekanligi keltiriladi. Bu bitta operatsiyani ikki marta sanashga va haqiqiy xarajatlarni to`liq aks ettirmaslikka olib keladi deyilgan²³.

E.V. Melnikova esa, logistika xarajatlari tayyor mahsulotlar narxining bir qismidir va uning narxiga sezilarli darajada ta'sir qiladi, ammo mahalliy amaliyotda ushbu xarajatlar guruhini hisobga olishga kam e'tibor beriladi, ularni aniqlash, tahlil qilish va optimallashtirishga tizimli yondashuv mavjud emasligini ta'kidlab, uning sababi sifatida mahalliy buxgalteriya hisobi tizimini tashkil etish bilan bog`liq jarayonni keltiradi. Uning fikricha, mahalliy amaliyotda qo`llaniladigan asosiy tannarxga kiritilgan xarajatlar tasnifida logistika xarajatlarining alohida tarkibiy qismlari har xil schyotlarda hisobga olinadi, bu esa aniqlash va hisobga olishni qiyinlashtiradi²⁴.

Melnikova tomonidan logistika xarajatlari hisobini buxgalteriya hisobida aks ettirishning qisqacha diagrammasi quyidagicha keltirilgan («2.1-jadvalga qarang»).

Jadval ma'lumotlaridan ko`rinib turibdiki, logistikaga oid xarajatlar darhaqiqat turli hisob obyektlarida, xarajatlar moddalari bo`yicha hisobi yuritiladi. Mazkur jadvalda Melnikova tomonidan schyotlar raqamidan ham foydalanilgan bo`lib, umumiy mazmuni berishni lozim topdik. Chunki, har bir mamlakatning o`z schyotlar tizimi mavjud bo`lib, fikrimizcha, schyotlarsiz berilishi ma'no jihatdan foydaliroq bo`ladi.

²³ Л.Б.Миротин. Основы логистики: учеб./ Л.Б. Миротин, А.К. Покровский. – М.: изд-во Академия, 2013 г.

²⁴ Мельникова Екатерина Валерьевна. Особенности учета логистических затрат на предприятиях // би . 2013. №5.

Logistika xarajatlarini buxgalteriya hisobida aks ettirilishi²⁵

Xarajatlar nomlanishi	Xarajat moddalari	Hisobga oladigan schyotlar
Materiallarni xarid qilish xarajatlari	materiallarni xarid qilish xarajatlari; turli komponentlarni xarid qilish xarajatlari	«Materiallar»
Tovar va mahsulotlarni tashish xarajatlari	mol etkazib beruvchilardan materiallarni tashib kelish xarajatlari; yuklarni korxonada ichida tashish va saqlash xarajatlari; xaridorlarga mahsulotlarni yuklash va tashib berish xarajatlari	«Materiallar» «Asosiy ishlab chiqarish»; «Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini hisobga oluvchi schyotlar
Ombor hisobi bilan bog`liq xarajatlari	zaxiralalarni saqlab turish xarajatlari; omborlarni saqlab turish xarajatlari	«Materiallar» «Asosiy ishlab chiqarish»; «Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini hisobga oluvchi schyotlar
Logistika tizimini boshqarish bilan bog`liq xarajatlari	logistika faoliyati bilan shug`ullanuvchi xodimlar ish haqi bilan bog`liq xarajatlari; reklama, marketing va boshqa xarajatlari; tara, qadoqlash va boshqa xarajatlari	«Asosiy ishlab chiqarish»; «Sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini hisobga oluvchi schyotlar «Ma`muriy xarajatlari»
Yo`qotish bilan bog`liq xarajatlari	qiymatliklar buzilishi va kamayishidan kelib chiqadigan yo`qotishlar; brak aniqlanishi va tuzatilishi bilan bog`liq xarajatlari; kafolatli ta`mir bilan bog`liq xarajatlari	«Yordamchi ishlab chiqarish»; «Boshqa operatsiyaon xarajatlari»

Umuman olganda, o`rganishlar shuni ko`rsatdiki, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda ham menejment hisoboti moliyaviy hisobotlar bilan birlashtiriladi, chunki standart hisobvaraqlar rejasida ishlab chiqarish xarajatlari va faoliyat natijalari hisob-kitoblari nazarda tutilgan.

²⁵ Мельникова Екатерина Валерьевна. Особенности учета логистических затрат на предприятиях // би . 2013. №5.

Shu sababli, Melnikovada keltirilishicha, har bir mamlakat jumladn, maqola muallifi o`z mamlakati Qozog`istonda mavjud bo`lgan buxgalteriya tizimini logistika funksiyalari nuqtai nazaridan muammolarni hal qilishi uchun modernizatsiya qilish kerakligini ta`kidlaydi.

Internet manbalarida keltirilishicha, g`arb mamlakatlari buxgalterlarining fikriga ko`ra, ular ish vaqtining 90% gacha qismi resurslar boshqaruv hisobotini tuzish va yuritish uchun sarflanadi, qolgan qismi, faqat 10% atrofida bo`lgan qismi moliyaviy hisobotga sarflanadi²⁶.

Boshqaruv hisoboti va moliyaviy hisobotning tub farqi shundaki, moliyaviy hisobot tashqi ma`lumotdan foydalanuvchilarga (birinchi navbatda, soliq idoralariga) qaratilgan bo`lib, boshqaruv hisoboti ichki foydalanuvchilarga (birinchi navbatda, korxonalar va uning rahbarlariga) qaratilgan axborotlarni o`z ichiga oladi.

Olib borilgan tadqiqotlar, o`rganishlar shuni ko`rsatdiki, xalqaro amaliyotda xarajatlarning hisobga olinadigan moddalari ro`yxati ancha kengroq. Ammo, bizning respublikamizda ularni xarajatlar moddalari bo`yicha bo`lib hisobini yuritish bir muncha murakkab. Bunday tizimni qo`llanilishi buxgalterlardan ancha mehnat va vaqtni talab qiladi. Biroq yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, xarajatlar hisobini yuritishga vaqtni ayamalik, uni to`g`ri sarflash o`z samarasini beradi. Afsuski, bizning respublikamizda ham haligacha, raqamlarni chiqarish, moliyaviy hisobot shakllantirishga ko`proq vaqt sarflansada, xarajatlar hisobi detallarga bo`lib yuritilmaydi.

Logistik korxonalarida ta`minotida korxonalar va uning mahsulotlari, ish va xizmatlari raqobatbardoshligini ta`minlash, tizimdagi logistika xarajatlarini samarali tartibga solish bilan bog`liq muammolar markaziy o`rinni logistika xarajatlarini taqsimlash va guruhlash masalalari egallaydi.

Logistik korxonalarda xarajatlar hisobini samarali tashkil qilish, natijaga erishish uchun, mahsulotlarni etkazib berish va qabul qilishgacha bo`lgan jarayon uzviyligi ta`minlanishi kerak. Bunda jarayonda qatnashuvchi korxonalar,

²⁶ <http://www.xcomp.biz/4-1-uchet-logisticheskix-izderzhek.html>

subyektlar bir-birini qo`llab-quvvatlagan holda ishni tashkil etishlari kerak. Shundagina, xarajatlar samaradorligiga erishilib, qilingan xarajatlarga munosib foyda ko`rsatkichlari shakllanadi.

Logistika xarajatlari asosan, tashish, saqlash, etkazib berish, tashib keltirish bilan bog`liq bo`lganligi bois, xarajatlar bir-biri bilan uzviy bog`langan bo`ladi. Bunday xarajatlar akasariyat hollarda mahsulot, ish va xizmatlarning tannarxiga kiritish imkoni yo`qligi sababali, ularning asosiy qismi umumishlab chiqarish, umumiy va davr xarajatlarida aks etadi.

Logistik xarajatlari turli usullar yordamida hisobini tashkil etish mumkin. Bu borada ham olimlar tomonidan turli fikr-mulohazalar keltirib o`tilgan. Bunda asosan, xarajatlarni xalqaro amaliyotda qo`llaniladigan quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

1. Standart costing.
2. Direct costing.
3. Absorption costing.
4. AVS (activity based costing).

Standart costing usulida barcha xarajatlar iste'molchilarga xizmat ko`rsatishdan oldin miqdoriy va pul o`lchov birliklarida hisoblanadi. Bu usulda xarajatlar hisobini yuritishning o`ziga xos yutuq tomonlari va kamchiliklari bo`lib, mualliflar E.V.Rogatenyuk tomonidan usulning yutuqli tomonlari quyidagicha keltirilgan²⁷:

- xarajatlarni tahlil qilish va nazorat qilish uchun zarur bo`lgan axborot bazasini shakllantirish, xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonida rejadan chetlanishlarni aks ettirishda aniqlik;

- xarajatlarni hisoblash bilan bog`liq buxgalteriya ishlarini minimallashtirish, menejrlarni ishlab chiqarishning kutilayotgan xarajatlari to`g`risida ma'lumot bilan o`z vaqtida ta'minlash.

²⁷ Характеристика современных методов управления затратами. Рогатенюк Э.В., Экономика Крыма №3(40), 2012 год.

Yuqorida keltirib o`tilganidek, usulning afzallik tomonlari xarajatlarni tahlil qilish uchun etarli axborotning shakllanishi bilan izohlanib, albatta axborotning o`z vaqtida va etarli bo`lishi korxonaning har qanday iqtisodiy ko`rsatkichlari hisobini yuritish, tahlil qilish va samaraga erishadigan qarorlar qabul qilishga olib keladi.

Bundan tashqari muallif usulning kamchiligi haqida ham to`xtalib o`tgan bo`lib, uning fikricha ular quyidagilar:

davriy takroralanadigan xarajatlarni qo`llash;

normativ-huquqiy bazaning tarkibi va sifatiga bog`liqlik;

xarajatlarning ayrim turlari uchun me`yorlarni belgilashning iloji yo`qligi.

Direct costing usulini logistik korxonalarda qo`llanilishi ham o`zining afzallik va kamchiliklariga ega. O`zgaruvchan ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot tannarxi va yakuniy zaxiralar smetasiga kiritiladi va doimiy xarajatlar operatsiyalarning moliyaviy natijalari bo`yicha to`liq hisoblab chiqiladi. U xarajatlarni o`zgaruvchan va doimiy deb tasniflash bilan bir qatorda, barcha o`zgaruvchan xarajatlarni qoplaganidan keyin korxonada olgan daromad bo`lgan marjinal daromad tushunchasiga asoslanadi.

Bu borada ham olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi afzallik va kamchiliklari ajratib ko`rsatilgan («2.2-jadvalga qarang»).

Absorption costing usulida barcha to`g`ridan-to`g`ri ishlab chiqarish xarajatlari va barcha bilvosita xarajatlar mahsulot tannarxiga qo`shiladi. Xarajatlar narxiga (to`g`ridan-to`g`ri va bilvosita) taqqoslash usuli bo`yicha xarajatlarni tasniflash asosida olib boriladi. To`g`ridan-to`g`ri xarajatlar ma`lum bir mahsulotga iqtisodiy jihatdan to`g`ri keladi. Bilvosita xarajatlarning umumiy miqdori mahsulot bo`yicha tanlangan taqsimot omillariga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Tarqatish koeffitsientlarini tanlash sanoat xususiyatlariga, korxonada hajmiga, uning tashkiliy tuzilishiga, mahsulot assortimentiga va boshqa omillarga bog`liq. Korxonada xarajatlari tarkibida to`g`ridan-to`g`ri xarajatlar qanchalik ko`p bo`lsa, mahsulotning aniq turlari tannarxi qanchalik aniq bo`lsa, bu usulning samarali qo`llanilishiga erishiladi.

**Logistika xarajatlarini Direct costing usulida hisobga olish
afzallik va kamchiliklari²⁸**

Afzalliklari	Kamchiliklari
<p>qo`shimcha buxgalteriya tartib-qoidalarini yaratmasdan, muntazam moliyaviy hisobotlardan kerakli ma'lumotlarni olish mumkin;</p> <p>davr foydasi zaxiralar qoldig`ini o`zgartirganda doimiy qo`shimcha xarajatlarga bog`liq emas;</p> <p>qo`shimcha xarajatlarni taqsimlashning mehnat zichligi pasayadi, har bir turdagi mahsulotning kompaniya foydasini shakllantirishga qo`shgan hissasini aniqlash mumkin bo`ladi;</p> <p>nostandart hisoblash usuli bilan birgalikda ishlab chiqarish dasturini optimallashtirishga, yangi mahsulotlar narxlarini oqilona aniqlashga, yangi buyurtmalarga ehtiyoj yoki rad etishni asoslashga imkon beradi;</p> <p>mahsulotni o`zingiz ishlab chiqarish yoki sotib olish o`rtasida tanlov qilishingizga imkon beradi</p>	<p>xarajatlarning ko`p turlarini birma-bir o`zgaruvchan deb tasniflash yoki doimiy qilib bo`lmaydi;</p> <p>ruxsat etilgan xarajatlarga kam e`tibor berish;</p> <p>ilgari ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatining pastligi yoki oshib ketganligi sababli moliyaviy natijani buzish;</p> <p>muhim investitsiyalarni talab qiladigan texnologik jihatdan murakkab loyihalar rentabelligi haqidagi illuziyani yaratadi</p>

Albatta mazkur usulni o`rganishlar asosida mualliflar tomonidan afzallik va kamchilik tomonlari e`tirof etilgan. Usulning afzalligi sifatida mahsulotlarning ayrim turlarining tannarxi va rentabelligini hisoblash, moliyaviy buxgalteriya hisobi uchun ariza berish va buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlarni tuzish, omborxonada va tugallanmagan tayyor mahsulotlarning, tayyor mahsulot zaxiralarining umumiy qiymatini hisoblash, qo`llanilish doirasining kengligi, mahsulot birligiga narxni hisoblash imkoniyatining mavjudligi keltiriladi.

Usulning kamchiliklari sifatida esa, bilvosita xarajatlarni taqsimlash uchun noto`g`ri bazani tanlash ehtimoli, bu tannarx narxining haqiqiy qiymatining buzilishiga va asossiz narxlarning o`rnatilishiga olib kelishi, xarajatlarni bir

²⁸ Характеристика современных методов управления затратами. Рогатенюк Э.В., Экономика Крыма №3(40), 2012 год.

6. Распределение управленческих расходов на промышленном предприятии на основе метода activity based costing (учета затрат по видам деятельности). Шешукова Т.Г., Ленина В. В., Ворожцова К.А. // Вестник ПГУ. Серия: Экономика 2014. №1.

guruhga bog'lashdagi noaniqlik, har xil korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxini qiyosiy tahlil qilish uchun foydalanishning iloji yo'qligi keltiriladi.

Shu bois hisob yuritishda usullarni tanlash va uni to'g'ri qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir usulning yutuq va kamchiliklari bo'lib, ularni qo'llashda chuqur o'rganish talab etiladi. Hatto, bunday paytlarda korxonada faoliyati va xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Navbatdagi qo'llaniladigan usullardan biri bu **AVS (activity based costing)** usuli bo'lib, mazkur usul boshqa usullarga qaraganda bir muncha kengroq qo'llaniladi.

Logistik xarajatlarni hisobga olish uchun ABC tizimidan foydalanish imkoniyatini batafsil ko'rib chiqamiz. ABC usuli AQSHda ishlab chiqilgan va G. Bere, R. Kuper, T. Jonson, R. Kaplan asarlari tufayli ma'lum bo'lgan (1980-yillarning oxiridan boshlab). Ushbu usulni AQSH, Buyuk Britaniya, Evropaning kontinental va Avstraliyani o'z ichiga olgan yirik kompaniyalarning taxminan 10% foydalanadi. U Yaponiyada ham qo'llanilmoqda. Mahalliy korxonalarda ushbu usul ancha past darajada qo'llaniladi.

T.G.Sheshukova, V.V.Lenina, K.A.Vorojtsovalarning ta'kidlashicha, funktsional tizimlarning an'anaviy tizimlardan farqi shundaki, ular turli taqsimlash bazalarining ko'proq xarajat markazlariga ega. Xarajat markazlari sonining ko'payishi maqsadli xarajatlarni bog'liq bo'lgan bilvosita xarajatlarni o'lchash aniqligining oshishiga olib keladi. An'anaviy tizimlar haddan tashqari soddalashtirilgan, ABC tizimlari haddan tashqari murakkabroq, ammo aniqlik va xarajatlarni baholash darajasi ancha yuqori²⁹.

J.Krajnc, K.Logozar, B.Koroseclar logistika xarajatlarning ishlab chiqarish kompaniyalarida yashirin qo'shimcha xarajatlarni sifatida ko'rinishini oshirdi. ABC

²⁹ Распределение управленческих расходов на промышленном предприятии на основе метода activity based costing (учета затрат по видам деятельности) . Шешукова Т. Г., Ленина В. В., Ворожцова К. А. // Вестник ПГУ. Серия: Экономика . 2014. №1.

tizimi orqali moddiy oqimlarni boshqarish an'anaviy xarajatlarni hisobga olish uslubiga nisbatan sezilarli darajada yaxshilanishi mumkin³⁰.

2012-yilda ABC ta'minot zanjiri muhitida qo'llanilgan. Darajalarni tejash imkoniyatlarini aniqlashga qodir bo'lgan kontseptual asos ishlab chiqilgan³¹.

Shunday qilib, logistik xarajatlarni hisobga olishning ABC usulini qo'llash bo'yicha mavjud ilmiy nashrlarni ko'rib chiqib, biz xulosa qildik, uslubiy cheklovlarga qaramay, bu usul hali ham amalga oshirish uchun yuqori salohiyatga ega xarajatlarni hisobga olishning kuchli vositasi hisoblanadi va yanada samarali logistika qarorlarini qabul qilishga hissa qo'shishi mumkin. Aniq xizmat ko'rsatish xarajatlaridan tashqari, ABC umumiy o'rtacha operatsion xarajatlarni ham ta'minlaydi. Faoliyatning o'rtacha yoki birlik xarajatlari keyinchalik asosiy ishlab chiqaruvchi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin.

Va nihoyat, eng muhimi, ABC statistik tashkilotni tasvirlash o'rniga operatsion tuzilmani dinamikaga, faoliyatga yo'naltirilgan modellashtirishga tayanadi, ishlab chiqilgan xarajatlar modeli turli kompaniyalarga moslashtirilishi mumkin³².

ABC usulining asosiy afzalligi mahsulot tannarxini an'anaviy xarajatlarni taqsimlash usuli bilan taqqoslaganda aniqroq hisoblashdir, bu narxlash bo'yicha aniqroq qarorlarni qabul qilishga olib keladi. Ushbu afzallik asosiy ishlab chiqarish va texnologik funktsiyalarga e'tiborni jamlash, ularni to'liq tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tanlash bilan ta'minlanadi.

Bu borada o'rganishlar va olimlarning fikrlarini umumlashtiradigan bo'lsak, bu tizimning ham o'ziga xos afzallik va kamchiliklari mavjud («2.3-jadvalga qarang»).

³⁰ Krajnc, J., Logozar, K., Korosec, B. (2012) Activity-based management of logistic costs in a manufacturing company. a case of increased visibility of logistic costs in a Slovenian paper manufacturing company. *Promet Traffic & Transportation*. 24 (1). pp. 15-24.

³¹ Schulze, M., Seuring, S., Ewering, Ch. (2012) Applying activity-based costing in a supply chain environment. *International Journal of Production Economics*. 135 (2). pp. 716-725.

³² Applying Activity-based Costing at Logistics Service Providers. *Periodica Polytechnica Transportation Engineering*, research article Zoltán Bokor, Rita Markovits-Somogyi, p.98, 2014.

Logistika xarajatlarini AVS costing usulida hisobga olish afzallik va kamchiliklari³³

AVS (activity based costing) tizimi	
Operatsiyalar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish (funktsional xarajatlarni hisobga olish). Bitimlar mahsulot tannarxini hisoblash uchun buxgalteriya hisobi va hisoblashning asosiy obyektlari sifatida qaraladi. Ushbu g'oya bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxiga bosqichma-bosqich taqsimlashdan iborat. AVS - usul har qanday xarajatlarning ma'lum bir faoliyat tufayli kelib chiqishini va har bir mahsulot turi o'ziga xos faoliyat turiga mos kelishini taxmin qiladi.	
Afzalliklari	Kamchiliklari
qo'shimcha xarajatlarni aniq mahsulotga, aniqroq tannarxga taqqoslash asoslarining sezilarli darajada oshishi; qabul qilingan ma'lumotlarning xarajatlarni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi, uning faoliyatini takomillashtirish, uning faoliyatini sifat jihatidan baholashga imkon beradi	buxgalteriya hisobi tizimida jiddiy o'zgarishlarni va axborotni qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi, bu esa boshqaruv xarajatlarini oshirishga olib keladi; tizimdan foydalanish ma'lum sharoitlarda samarali bo'ladi: to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar xarajatlarning katta qismini tashkil qiladi, korxonada taxminan bir xil xarajatlar bilan 1-2 turdagi mahsulot ishlab chiqarishi kerak

Raqobatbardosh bozor sharoitida tranzaksiya xarajatlari qo'shimcha qiymatning katta qismini tashkil qilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Asosiy va xizmat ko'rsatish operatsiyalarini bajarish samaradorligining oshishi bilan korxonalar mahsulotlari va xizmatlari raqobatbardosh va iste'molchilar uchun jozibador bo'lib qolmoqda.

T.G. Sheshukova, V.V. Lenina, K.A. Vorojtsovalarning ta'kidlashicha, ABC buxgalteriya hisobi tizimi Qozog'istonda hali ham keng qo'llanilmaganligi sababli, ushbu usulning asosiy g'oyasi soddaligiga qaramay, "xarajatlarni emas, balki harakatlarni boshqarish uchun, xarajatlarni hisobga olish tizimini amalga oshirishda qiyinchiliklar mavjud. Amalda, bu juda murakkab, qimmat va vaqt talab qiladigan vazifadir. Bundan tashqari, ko'plab korxonada rahbarlari ushbu usulning

³³ Характеристика современных методов управления затратами. Рогатенюк Э.В., Экономика Крыма №3(40), 2012 год.

6. Распределение управленческих расходов на промышленном предприятии на основе метода activity based costing (учета затрат по видам деятельности). Шешукова Т. Г., Ленина В. В., Ворожцова К.А. // Вестник ПГУ. Серия: Экономика. 2014. №1.

mohiyati va afzalliklarini etarlicha tushunmaydilar. ABC-tizimni amalga oshirish xarajatlari tegishli bilimga ega bo`lgan xodimlarni tanlashda, bunday xodimlarni yollashda, ish haqi va ba'zi moddiy xarajatlarda (ish materiallari va boshqalar) ifodalanadi. Umuman olganda, bunday xarajatlar olingan samaradan ancha kam bo`lishi kerak.

Shu bilan birga, ABC usulini joriy qilish nafaqat boshqaruv xarajatlarini kamaytirish orqali, balki ushbu tizimni korxonadagi barcha turdagi bilvosita xarajatlarga yoyish orqali sezilarli tejashga yordam beradi. Ya'ni, ma'lum bir vaqtda va joyda eng katta foyda keltiradigan va atrofdagi o`zgarishlarga tezda javob beradigan vositalardan foydalanishingiz kerak³⁴.

Qozog`iston korxonalarida foydalanish imkoniyati to`g`risida ABC usulini o`rnatishda duch keladigan bir nechta muammolar mavjudligi keltirilgan:

- xodimlar tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar narxini va uning ish hajmini aniqlashdan manfaatdor emas;

- korxonalarda ko`pincha ABCni amalga oshirish uchun asos bo`lib xizmat qiladigan biznes-jarayonlarning vakolatli va zamonaviy tavsiflari (modellari) mavjud emas.

- asoratlar toifalar va javobgarlik markazlari bo`yicha xarajatlarni taqsimlash bosqichida paydo bo`ladi³⁵.

ABC usulidan foydalangan holda xarajatlarni hisobga olish korxonalar va mutaxassislar uchun juda mashaqqatli, shuningdek, katta miqdordagi ma'lumotni tahlil qilishni talab qiladiganligi sababli, uni to`liq yoki qisman avtomatlashtirishsiz qo`llash mumkin emas. Buning uchun har qanday dasturiy mahsulotlardan foydalanishni tavsiya etiladi.

Biroq, ABC avtomatlashtirish loyihasiga xos bo`lgan bir qator xususiyatlar mavjud bo`lib, ular tizimni tanlashda ham, amalga oshirish loyihasini amalga oshirishda ham e'tiborga olinishi kerak.

³⁴ Распределение управленческих расходов на промышленном предприятии на основе метода activity based costing (учета затрат по видам деятельности). Шешукова Т.Г., Ленина В.В., Ворожцова К.А. // Вестник ПГУ. Серия: Экономика. 2014. №1.

³⁵ http://www.cfin.ru/management/finance/cost/actbased_costing.shtml.

ABC va uni avtomatlashtirish asosida boshqaruv tizimini barpo etishning besh bosqichi mavjud:

- birinchi bosqichda aniq jarayonlar bilan bog`liq xarajatlar markazlari, haydovchilar aniqlanadi, ularning nisbati ushbu xarajat markazlariga taqsimlanadi;

- ikkinchi bosqichda tizim dizayni ishlab chiqiladi va jarayonni qanday avtomatlashtirish kerakligi aniqlanadi;

- uchinchi bosqichda, kerakli bo`limlarda ma'lumotlarni hisobga olish va tahlil qilish maqsadida "analitik kub" dasturiy ta'minotining tuzilishi ishlab chiqilgan bo`lib, unda ma'lumotlar, masalan, quyidagi o`lchamlarda keltirilgan: mahsulot kodi, sana, xarajatlar markazi, xarajat moddasi va miqdori. Keyinchalik, kompaniyaning xarajatlarni taqsimlash talablarini inobatga olgan holda tizimning standart funktsional imkoniyatlarini kerakli qayta ko`rib chiqish amalga oshiriladi. Analitik o`lchovlar kesishmasidagi ma'lumotlarni tahlil qilish kompaniyaning xarajatlar tarkibi to`g`risida to`liq va ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin.

- to`rtinchi bosqichda echimlar metodologiyasi lavozim tavsiflarida tavsiflanadi, tizim foydalanuvchilari o`qitiladi;

- beshinchi bosqichda tizim sinov rejimida ishlashga o`tkaziladi.

Korxonadagi xarajatlar to`g`risidagi buxgalteriya va analitik ma'lumotlar buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil tizimi tomonidan hosil qilinadi. Xarajatlarni hisobga olish tizimi, bir tomondan, xarajatlar to`g`risidagi ma'lumotlarni to`plash, ro`yxatdan o`tkazish va umumlashtirish uchun tartibli tizim sifatida, boshqa tomondan korxonada mavjud bo`lgan buxgalteriya hisobi turlarining to`plami sifatida ifodalanishi mumkin. Buxgalteriya tizimida to`plangan ma'lumotlar iqtisodiy tahlilning axborot bazasi hisoblanadi.

Buxgalteriya hujjatlarida qayd etilgan xarajatlar ma'lumotlarini o`z vaqtida va to`liq tahlil qilish, biznesning yanada yaxshi natijalariga erishish uchun zarur qarorlarni qabul qilishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlil buxgalteriya hisobi tizimidan ajralgan holda ishlay olmaydi. Uning chiqishi samaradorligi kiruvchi buxgalteriya ma'lumotlarining sifatiga bog`liq.

Shunday qilib, zamonaviy sharoitlarda xorijiy korxonalar yoki chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda bo`lgani kabi boshqaruv hisobotlarini moliyaviy hisobot bilan birlashtirish zarur bo`lib qoladi. Logistika xarajatlarini aniqlash, tahlil qilish va hisobga olish tizimli va muvofiqlashtirilgan bo`lishi kerak.

Logistika xizmati logistika xarajatlarini yo`naltirilgan hisobga olish, ularni hisoblash, dinamikani kuzatish, xarajatlar tarkibini tahlil qilish, optimallashtirish va kamaytirish yo`llarini topish bilan shug`ullanishi kerak.

Biroq, ishlab chiqarishning tobora ko`payib borayotgan murakkabligi, diversifikatsiyasi, tannarx narxi tarkibidagi o`zgarishlarning zamonaviy sharoitida eng obyektiv va real natijalarni beradigan bunday hisobga olish va hisoblash tizimiga ustunlik berish kerak. Korxonalar xarajatlari boshqariladigan bo`lib, ularni kamaytirish uchun eng samarali yo`llarni topish mumkin bo`ladi.

2.2-§. Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish amaliyoti

Logistik korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritishda eng muhim elementlardan biri bu xarajatlar va daromadlar hisobini o`z vaqtida va to`liq yuritish uchun shakllantiriladigan buxgalteriya axborotidir. Chunki logistik korxonalarining asosiy faoliyati tashish xizmatlaridan iborat bo`lib, tashishning yakunlanishi qaysi hudud yoki qaysi mamlakatda sodir bo`lishiga qarab uning hisobini ham vaqt va hudud bo`yicha yuritish maqsadga muvofiq.

Boshqaruvda axborotning ahamiyati haqida so`z borganda, bevosita ushbu axborotlarni qayta ishlash natijasida qabul qilinadigan qarorlar va ularning ijrosi natijadorligiga e`tibor qaratiladi. Axborotlar bevosita har qanday qarorning samaradorligiga ta`sir o`tkazadi. Umuman olganda xalqaro amaliyotda ma'lumot va axborot tushunchalari bir-biridan farqlanishiga katta e`tibor qaratiladi.

Umumiy ma'noda axborot – bu biror voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot ekanligi ayrim manbalarda keltirilsada³⁶, bu tushunchaning faoliyat va yo`nalishlardagi mazmuni bir muncha o`zgacharoq ifoda etiladi. Jumladan, buxgalteriya hisobi tizimida axborot aynan buxgalteriya hisobiga qaratiladi.

³⁶ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Axborot>

O`zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonunning 5-moddasida “Buxgalteriya axboroti boshlang`ich hisob hujjatlariga asoslangan, buxgalteriya hisobi registrlarida, moliyaviy hisobotlarda, tushuntirishlarda hamda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bilan bog`liq boshqa hujjatlarda aks ettiriladigan buxgalteriya hisobi obyektlari haqidagi qayta ishlangan ma`lumotlardir” deya qonunchilik ta`rifi berilgan³⁷.

Bu ta`rifdan ko`rinadiki, buxgalteriya axboroti buxgalteriya obyektlari to`g`risidagi qayta ishlangan ma`lumot ekan. Ammo, shu jihatga e`tibor berishimiz kerakki, qonunchilik ta`riflari ham doimo tushunchaning to`liq mazmunini qamrab ololmaydi. Ya`ni, qonunchilik ta`rifida keltirilishicha, qayta ishlangan ma`lumot bu buxgalteriya axboroti bo`la oladi hamda bu axborot aynan buxgalteriya hisobi obyektlari haqida bo`lishi kerak.

Qonunchilik normasiga yana nazar tashlaydigan bo`lsak, Buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonunning 7-moddasida, aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zaxiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog`liq xo`jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlari ekanligi keltirilgan. Demak, buxgalteriya axboroti mana shu obyektlar to`g`risida qayta ishlangan ma`lumotlarni ifoda etadi.

Yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek, axborot va ma`lumot tushunchalarini aynan buxgalteriya hisobini yuritishda farqlaydigan bo`lsak, axborot buxgalteriya hisobida hisobotlarga, yig`ma ma`lumotlarga mos keladigan bo`lsa, ma`lumot esa, boshlang`ich hisob hujjatlarini yuritishga asos bo`ladi. Logistik korxonalarda operatsiya sodir bo`lganligi to`g`risidagi ma`lumotlar umumlashtirilib, buxgalteriya axboroti sifatida namoyon bo`ladi.

Rus olim V.V.Kachalin buxgalteriya axborotining zaruriyati va ahamiyati haqida to`xtalib o`tar ekan, uning ahamiyatini quyidagilar bilan izohlaydi³⁸:

³⁷ O`zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi to`g`risidagi qonun, 13-aprel, 2016-yil. O`RQ-404.

³⁸ В.В.Качалин. Финансовый учет и отчетность в соответствие со стандартами. GAAP.3-е изд. – Москва: Дело, 2000. -432 с.

1. Axborotdan foydalanuvchilar uchun qiymatliligi yoki ahamiyatliligi. Bunda muallif, foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishda buxgalteriya axborotining etarlicha o`rni bo`lishi kerakligini hisobga oladi.

2. O`z vaqtidalilik. Bunda foydalanuvchilar uchun axborot o`z vaqtida, eskirmasdan etib borishi kerakligini, aks holda bu axborot teskari natija berishi mumkinligini ta`kidlab o`tadi.

3. Oldin qilingan prognozlarni bajarilishi baholashdagi ahamiyatlilik. Bunda oldin qilingan prognozlar qanchalik real natija berganligini baholash mumkin bo`ladi.

4. Ishonchlilik. Buxgalteriya hisob obyektiga to`g`risidagi turli hisobotlar real bo`lishi uchun olingan axborotlar ishonchli bo`lishi lozimligi ta`kidlanadi.

Mazkur muallif tomonidan aytilgan buxgalteriya axboroti bo`yicha fikrlarga bir qancha yillar bo`lgan bo`lsada, bizning fikrimizcha, ushbu fikrlar ayni kunda ham ahamiyatini yo`qotmagan. Haqiqatda buxgalteriya axboroti qimmatli, o`z vaqtida va ishonchli bo`lishi eng muhim masalalardan hisoblanadi. Buxgalteriya axborotining zaruriyati buxgalteriya hisobi subyektlarining turli faoliyat yo`nalishlari bo`yicha faoliyat yuritishlarida yanada muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

Yana bir muallif, D.Ovidiya, barcha kerakli ma`lumotlarning taxminan 50 foizini asosan buxgalteriya hisobi ma`lumotlari egallagan. Muallifning fikriga ko`ra, tashkilotlarda boshqaruv tuzilmalari uchun buxgalteriya ma`lumotlariga bo`lgan talabning ulushi kam emas³⁹.

R.Lane va S.Durden fikricha, "Buxgalteriya hisobi tizimi tashkilotning muhim manbai hisoblanadi, chunki, u qaror qabul qilish uchun boshqaruv amaliyotini zarur ma`lumotlar bilan ta`minlashda ishlaydi. Shuningdek, u ma`lumotlar va ma`lumotlardan foydalanishda ushbu resurslardan foydalanishni optimallashtirish maqsadida, o`z imkoniyatlari va resurslarini va ularning ish yo`nalishlarini muvofiqlashtirish bo`yicha tashkilotning yaxlit ko`rinishini

³⁹ D.Ovidia The role of management accounting in the decision making process: case study caraş severin county, Annales Universitatis Apulensis Series Oeconomica, 2013, vol. 15(2), pp. 355-366.

ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tashkilot uchun narxlarni belgilash to'g'risidagi qaror to'g'ridan-to'g'ri uning daromadiga ta'sir qiladi. Narxlar va hajmlar daromadlar tenglamasining ikki tarkibiy qismidir va biriga e'tiborni tanlash boshqasiga bevosita ta'sir qiladi deb ta'kidlaydi⁴⁰.

22-sonli «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi» nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti talabiga ko`ra chet el valyutasidagi operatsiyalar bo`lib chet el valyutasida amalga oshiriladigan bitim hisoblanadi, qachonki xo`jalik yurituvchi subyekt:

a) aktivlar, ishlar va xizmatlarni chet el valyutasida xarid qiladi yoki realizatsiya qiladi;

b) to`lash yoki olish summalari chet el valyutasida belgilangan kreditlar yoki qarzlarni olganda yoki taqdim etganda;

v) chet el valyutasidagi majburiyatlarni o`ziga qabul qilganda yoki majburiyatlarni qoplaganda, yoxud olinadigan schyotlarga ega bo`lganda⁷⁰.

Mazkur talabning “a” bandiga nazar tashlaydigan bo`lsak, aktivlar, ishlar va xizmatlarni chet el valyutasida xarid qilinishi chet el valyutasidagi operatsiyalar bo`lib hisoblanadi. Zero, logistik markazlar tomonidan sotib olinayotgan yoqilg`i moylash materiallari va ehtiyot qismlar ham aynan mana shu bandga mos keladi. Ya`ni, subyekt, aktiv sifati yoqilg`i-moylash materiallarini kirim qiladi.

Mazkur jarayonda yoqilg`i-moylash materiallarini xorijiy valyutada kirim qilinishida muammo yo`q deyish mumkin, ammo, amaliyotdagi mutaxassislarning fikriga ko`ra, bu holatda korxonadan olingan yoqilg`i-moylash materiallari va xarid qilingan, ayniqsa xorijiy valyutada xarid qilingan yoqilg`i moylash materiallari summasi o`rtasida farq kelib chiqadi. Shu bilan birga, xorijdan sotib olingan yoqilg`i-moylash materiallari xarid qilingan mamlakat valyutasi yoki umumqabul qilingan valyuta birliklaridan ifoda etiladi. Bundan esa, xorijiy valyutada xarid qilingan aktivlar bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish sanasi bo`yicha hisobini yuritish zarur degan qoida kelib chiqadi.

Vaholanki, 22-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti talablariga ko`ra, chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar qiymati, buxgalteriya hisobida aks ettirish maqsadida, so`mda qayta hisoblanishi lozim. Bir vaqtning o`zida chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlar qiymatini so`mda qayta hisoblash ushbu chet el valyutasining so`mga nisbatan Markaziy bank kursi bo`yicha amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun mazkur so`mdagi qayta hisoblash chet el valyutasida operatsiya sodir etilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo`yicha amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobi maqsadlari

⁷⁰ 22-sonli BHMS «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi»

uchun chet el valyutasidagi ayrim operatsiyalarning sodir etish sanalari 22-sonli BHMSning ilovasida keltirilgan⁷¹.

Yuqoridagi talablardan ko`rishimiz mumkinki, har qanday aktivlar bo`yicha operatsiyalar Markaziy bank kursi asosida so`mda hisobga olinadi. Bu erda biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, yoqilg`i-moylash materiallari turli mamlakatlar hududi orqali tashishda, asosan, AQSH dollarida olinadi. Biroq har doim ham AQSH dollariga olishning imkoniyati mavjud emas. Bunday hollarda tashuvchi-haydovchilar tomonidan o`sha mamlakatning pul birligi xarid qilinadi va shu pulga yoqilg`i-moylash materiallari olinadi.

Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarni buxgalteriya hisobida hisobga olish bo`yicha operatsiyalarni amalga oshirish sanasi, ya`ni xorijiy valyutani milliy valyutaga aylantirish sanasi borasida ham bir qancha muhokamalar bo`lib, bu bo`yicha N.Imamova o`z munosabatini bildirib o`tgan.

Muallif tomonidan xodimlarning hisobdor summalari bo`yicha chet el valyutasidagi qarzlarni aks ettirish bo`yicha munosabat bildirib, xorijiy valyuta xizmat safari bo`yicha xodimlar bilan hisoblashishlardagi operatsiya, Chet el valyutasida kiritilgan ulushlarning qaytarilishi, qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`larning olinishi, qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`larning qaytarilishi kabi tomonlari bo`yicha tadqiqot qilinib o`z munosabatlari bildirilgan.

Haqiqatda amaldagi qonunchilikka ko`ra, xodimlar turli mamlakatlarga xizmat safarlari borishi va turli xorijiy valyutalardan foydalanishlari mumkin. Biroq xizmat safariga yuborilayotgan shaxslarga faqat AQSH dollari ekvivalentida mablag` beriladi. Bu esa, turli mamlakatlarga xizmat safarlariga borganda hisoblashish bilan bog`liq muammolarni keltirib chiqaradi.

⁷¹ 22-sonli BHMS «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi»

3.1-jadval

Chet el valyutasidagi ayrim operatsiyalarni amalga oshirish sanalari
RO`YXATI⁷²

Chet el valyutasidagi operatsiyalar	Chet el valyutasidagi operatsiyalar amalga oshirilgan sana bo`lib hisoblanadi
Chet el valyutasidagi bank hisobvaraqlari bo`yicha operatsiyalar	Chet el valyutasidagi pul mablag`larining bankdagi hisobvaraqlarga kelib tushish yoki ularni bankdagi hisobvaraqlardan hisobdan chiqarish sanasi
Chet el valyutasidagi kassa operatsiyalari	Chet el valyutasini kassaga kirim qilish yoki ularni kassadan berish sanasi
Chet el valyutasidagi daromadlar	Chet el valyutasidagi daromadlarni tan olish sanasi
Chet el valyutasidagi xarajatlar	Chet el valyutasidagi xarajatlarni tan olish sanasi
Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarni baholash	Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarning xarid qilinganligini tasdiqlovchi boshlang`ich hisob hujjatlari (tovarning kuzatuv hujjatlari yoki bojxona yuk deklaratsiyasi) mavjud bo`lganda, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasi
Xodimlarning hisobdor summalari bo`yicha chet el valyutasidagi qarzlarni aks ettirish	*Haqiqat xarajat qilinganligi tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda hujjatlardagi sana, hujjatlar taqdim qilinmaganda esa, bo`nak hisoboti topshirilgan sana
Chet el valyutasidagi qarzlarning to`lanishi (qoplanishi)	Chet el valyutasidagi qarzlarni to`lash (qoplash) sanasi
Ustav kapitaliga ta`sischilarning ulushlar bo`yicha qarzдорligining yuzaga kelishi	Yuridik shaxs maqomini olish sanasi
Ustav kapitalining shakllanishi (ko`payishi)	Ustav kapitaliga ta`sischilar tomonidan ulushlarini kiritish sanasi
*Chet el valyutasida kiritilgan ulushlarning qaytarilishi	*Ustav kapitaliga ta`sischilar tomonidan ulushlarini qaytarish bo`yicha ta`sischilar tomonidan qaror qabul qilingan sana⁷³
*Qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`larning olinishi	*Qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`lar olingan sana
*Qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`larning qaytarilishi	*Qaytarib berish sharti bilan chet el valyutasidagi mablag`lar qaytarilgan sana

⁷² N.M. Imamova "Eksport-import va valyuta operatsiyalari hisobini takomillashtirish", iqtisodiyot fanlari bo`yicha falsafa doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent, Moliya. 2021.

⁷³ O`sha muallif taklifi

Shu bilan birga chet elliklar tomonidan ustav kapitaliga chet el valyutasida hissa kiritilishi, u baholab borilmaganda faqatgina bir tomonlama baholanishi oqibatida xorijiy ta'sischi o'z ulushini olayotgan yoki ta'sischi safidan chiqayotganida mazkur ulushni baholanishi oqibatida korxonaning zarar ko'rishi mumkinligi standartni ishlab chiqishda inobatga olinmagan.

N.Imamova tomonidan, aynan, chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarni buxgalteriya hisobida hisobga olish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish sanasi aktivlar va majburiyatlarni ayrim elementlari bo'yicha baholashni amalga oshira olmasligi, xususiyl kapitalni esa, umuman baholash imkoni yo'qligi e'tirof etib, o'zining quyidagi variantini taklif etadi.

Darhaqiqat, har qanday chet el valyutasida ifodalangan aktiv, majburiyat yoki kapitalni hisobda aks ettirishda so'mga aylantirishning aniq belgilangan sanasi mavjud bo'lishi lozim. Aks holda qachon va qaysi qiymatda so'mga aylantirish masalasi doimo muammo bo'lib, hisob-kitob ishlarida chalkashliklarni keltirib chiqaraveradi.

Bundan kelib chiqadiki, yoqilg'i moylash materiallarining hisobi bo'yicha navbatdagi masala, ularni kirim qilish bilan bog'liq chet el valyutasidagi operatsiyani amalga oshirish sanasi bilan birga, turli valyutalar o'rtasidagi farqlar ham bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, mazkur masalaning yana bir tomoniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Ya'ni, agar yoqilg'i moylash materiallari xarid qilingandan keyin 10-15, ayrim hollarda bir oydan keyin korxonaga qaytiladigan bo'lsa, ularning so'mdagi hisobi qanday yuritiladi. Bu bo'yicha amaldagi standartimizda tovar-moddiy zaxiralar qayta baholanmasligi, shu bilan birga ular sotib olish sanasida so'mga aylantirilishi bo'yicha normalar mavjud. Ushbu normalarga e'tibor beradigan bo'lsak, yoqilg'i-moylash materiallar korxonaga kirim qilish sanasidagi kurs bo'yicha qayta baholangan holda so'mga aylantirilib, buxgalteriya hisobida hisobga olinishi maqsadga muvofiq.

22-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartidagi quyidagi hisob yuritish talablarini ham inobatga olgan holda o'z xulosalarimizni ifoda etamiz:

- xo`jalik yurituvchi subyektning O`zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritishi uchun foydalaniladigan chet el valyutasida ifodalangan asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o`rnatiladigan asbob-uskunalari, kapital qo`yilmalari, tovar-moddiy zaxiralari qiymatini so`mda qayta hisoblash, ushbu aktivlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilish sanasidagi Markaziy bankning kursi bo`yicha amalga oshiriladi.

- xo`jalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari, o`rnatiladigan asbob-uskunalari, kapital qo`yilmalari, tovar-moddiy zaxiralari qiymatini O`zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritish joyi – xorijiy davlatning qonun hujjatlari yoki qoidalariga muvofiq qayta baholangan qiymatini qayta hisoblash, ushbu qayta baholash o`tkazilgan sanadagi Markaziy bankning kursi bo`yicha amalga oshiriladi.

- O`zbekiston Respublikasidan tashqarida faoliyat yuritishning moliyaviy natijalarini shakllantiradigan, chet el valyutasida ifodalangan daromadlar va xarajatlarni so`mda qayta hisoblash, hisobot davridagi Markaziy bankning kurslari va ular amal qilish kunlari hosilalari summasini hisobot davridagi kunlar miqdoriga bo`lish natijasida hisoblab chiqilgan kurslarning o`rtacha miqdoridan foydalangan holda amalga oshiriladi⁷⁴.

Ushbu talabning birinchisi shunday ma`noni bermoqdaki, tovar-moddiy zaxirlar buxgalteriya hisobida kirim qilingan kundagi Markaziy bank kursi bo`yicha so`mda hisoblab, undan keyin kirim qilinishi kerak. Ammo, biz muhokama qilayotgan masala, ya`ni, xorijiy davlatlardan turli valyuta va qiymatliklarda yoqilg`i-moylash materiallari va ehtiyot qismlarning xarid qilinishi bilan ular buxgalteriya hisobiga kirim qilingan hisoblanmaydi, ammo, jarayonda foydalaniladi. Chunki, xorijda bo`la turib xarid qilingan yoqilg`i-moylash materiallarini buxgalteriya hisobiga kirim qilishning iloji yo`q.

Shu bois, ushbu masala bo`yicha navbatdagi vaziyat yuzaga keladi, ya`ni xarid qilingan aktiv (tovar-moddiy zaxira)ni buxgalteriya hisobiga kirim qilish. Bu holatda tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobiga kirim qilish masalasi,

⁷⁴ 22-sonli «Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi» nomli BHMS.

qachon kirim qilingan hisoblanishi boshqa huquqiy hujjatlar asosida ko`rib chiqishga harakat qilamiz.

4-sonli buxgalteriya hisobining milliy standarti talablariga ko`ra tovar-moddiy zaxiralar tashkilotning buxgalteriya balansiga quyidagilar natijasida kiritilishi lozim⁷⁵:

mahsulot etkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi bo`yicha xarid qilish;

ta'sischilardan tashkilotning ustav kapitaliga ulush sifatida kelib tushishi;

ta'sischi tarkibidan chiqishda yoki tugatilayotgan tashkilotning mol-mulki uning ishtirokchilari o`rtasida taqsimlanayotganda tashkilotning ilgari boshqa tashkilotning ustav kapitaliga kiritilgan ta'sis ulushi qaytarilishidan kelib tushishi;

bepul kelib tushish (hadya shartnomasi bo`yicha);

ayirboshlash;

uzoq muddatli aktivlar tarkibidan o`tkazish;

ortiqcha (hisobga olinmagan) tovar-moddiy zaxiralarni aniqlash;

ilgari berilgan tovar qarzining qaytarilishi yoki tovar qarzini olish;

tashkilotning o`zida tayyorlanishi;

hisobot davri oxirida tugallanmagan ishlab chiqarish sifatida hisobga olinadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko`rsatish;

tovar-moddiy zaxiralarga bo`lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar.

Ushbu talablarga muvofiq xorijda xarid qilingan va ishlatilgan yoqilg`i moylash materiallari hamda ehtiyot qismlar qaysi bandga to`g`ri kelishi yuqorida aytganimizday, yana bir munozarali holatni keltirib chiqaradi. Faqatgina oxirgi talab, ya'ni, tovar-moddiy zaxiralarga bo`lgan mulk huquqi olinishiga olib keladigan boshqa operatsiyalar va hodisalar natijasida kirim qilinishi to`g`ri kelishi mumkin, biroq xorijdagi yoqilg`i quyish shahobchasi xarid qilingan yoqilg`i yoki ehtiyot qismga asosan kassa cheki berish bilan kifoyalanadi. Bu esa, biz tomonimizdan biror oldi-sotdi shartnomasisiz, chek asosida hisob yuritish majburiyatiga olib keladi.

⁷⁵ 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMS.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko`rsatdiki, amalda bunday xarajatlar, jami xizmat safari xarajatlari sifatida hisobga olinganligi ham mavjud. Ya'ni, tashish jarayonida haydovchiga berilgan xizmat safari bilan bog`liq avansda yoqilg`i uchun ham mablag` berilgan va qaytib kelganida jami xarajatni xizmat safari xarajati sifatida hisobdan chiqarilgan.

Bizningcha, har qanday holatda ham hisob ishlari to`g`ri, aniq va ishonchli bo`lishi lozim. Aks holda hisob ishlarida chalkashlik bo`lishi, har kim o`z xohlaganicha hisob yuritishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, Xorijiy mamlakatlardan xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralar va boshqa qiymatliklarni hisobga kirim qilish uchun alohida korxonalar ichki normativ-huquqiy hujjatlarida amaldagi qonunchilik talablari doirasida norma ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

3.2-§. Logistika korxonalarida iqtisodiy tahlilni takomillashtirish

Albatta logistika korxonalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishdan maqsad, birinchi navbatda ushbu sohaning samaradorligiga bog`liq. Zero, iqtisodiy tahlilning asl maqsadiga ham shundan iborat.

«Buyuk kelajak» ekspertlar kengashi a'zosi, Germaniyaning Zenit Spedition GmbH & CoKG kompaniyasining logistika bo'yicha mutaxassisi Mirjalol Fayziev O'zbekistonda logistika samaradorligi to`g`risidagi fikrlarini keltirgan holda logistika korxonalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etish masalalari naqadar muhimligiga e'tibor qaratamiz⁷⁶.

Ekspertning fikricha, har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida uning qon tomiri bo`lgan logistika tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Samarador logistika tizimi ichki bozorda tayyor mahsulot va xom-ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda etkazib berilishini ta'minlaydi, bozordagi raqobatni rag`batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Rivojlanib

⁷⁶ <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/31/logistics>

borayotgan mamlakatimiz uchun samarador logistika tizimini tashkil qilish juda ham muhim.

Yuqorida keltirib o`tilgan muallif maqolasida O`zbekiston logistika samadorligining (LPI) dunyo miqyosidagi o`rni haqida gapirar ekan, Jahon Banki tomonidan 2018-yilda chop etilgan logistika samadorligi hisobotida O`zbekiston 160 davlat orasida 99-o`rinni egallaganligini yozadi. Mazkur hisobotni ishlab chiqishda bojxona samadorligi, transport infratuzilmasi sifati, xalqaro tashimalarni tashkil qilish osonligi, soha mutaxassislarining bilim va salohiyati, yuklarni kuzatish imkoniyati va yuklarni o`z vaqtida etkazish darajasi kabi me`zonlar hisobga olinadi. Afsuski mintaqamiz LPI darajasi maqtanarli darajada emas. Bu borada respublikamiz mintaqada Qozog`istondan keyingi ikkinchi o`rinni egallaydi. Quyida LPI reytingida birinchi o`rinni egallagan Germaniya va O`zbekistonning me`zonlar bo`yicha farqini ko`rishingiz mumkin.

Logistika samadorligi indeksi – **LPI (Logistics Performance Index)** Jahon banki tomonidan har ikki yilda bir marta e`lon qilinadi. Ushbu indeksni tanlash unga e`tiborning ichki va xalqaro logistika faoliyatini takomillashtirishni rag`batlantirishi bilan bog`liq bo`lib, bu milliy raqobatbardoshlikni oshirish uchun zarur shartdir.

Ushbu ko`rsatkichlarning mamlakat bozor salohiyatining rivojlanishi bilan o`zaro bog`liqligi aniq, ularning qiymatlari qanchalik baland bo`lsa, savdo operatsiyalari ishtirokchilarining ichki va tashqi bozor munosabatlari shunchalik samarali rivojlanadi, bu YaIMning shakllanishiga ma`lum hissa qo`shadi.

Hisobot Logistika samadorligi indeksini belgilaydigan 6 komponentdan foydalangan holda raqobatbardoshlikni o`lchaydi. 160 mamlakat baholanib, ballar soni 1 va 5 oralig`ida. Indeks so`rovnoma asosida tuzilgan. Har bir respondent logistika samadorligining oltita asosiy tarkibiy qismlari bo`yicha sakkizta chet el bozorini baholaydi:⁷⁷

- bojxona va chegaralarni rasmiylashtirish samadorligi;
- savdo va transport infratuzilmasi sifati;

⁷⁷ <https://review.uz/oz/post/infografika-uzbekistan-v-indekse-effektivnosti-logistiki-2016-2018-gg>

- raqobatbardosh narxlarda xalqaro transportni tashkillashtirish qulayligi;
- logistika xizmatlarining sifati va vakolatlari;
- tovarlarning o`tishini kuzatish;
- yuklarni etkazib berishning o`z vaqtida bajarilishi.

O`tgan 2016-yilgi hisobotga nisbatan o`z ko`rsatkichlarini 19 pog`onaga yaxshilab, 2018-yilgi hisobotda O`zbekiston dunyoda 99-o`rinni egalladi. O`zbekiston 2,58 ochko (5 ochkodan) to`plagan bo`lsa, mintaqa peshqadami (Qozog`iston) 4,2 ball to`plab, Markaziy Osiyoda birinchi o`rinni egalladi.

Ushbu hisobotga ko`ra, bojxona va chegaralarni rasmiylashtirish samaradorligi 2,1 ball (140-o`rin), savdo va transport infratuzilmasi sifati - 2,57 ball (77-o`rin), xalqaro transportni raqobatbardosh narxlarda tashkillashtirish qulayligi - 2,42 ball (120-o`rin), Logistika xizmatlarining sifati va malakasi - 2,59 ball (88-o`rin), tovarlarning o`tishini kuzatish - 2,71 ball (90-o`rin), tovarlarni o`z vaqtida etkazib berishining bajarilishi - 3,09 ball (91-o`rin).

Tovarlarning o`tishini kuzatish (Q53), logistika xizmatlarining sifati va malakasi (Q28) va tovarlarni o`z vaqtida etkazib berilishi (Q23) tarkibiy qismlarida O`zbekistonning ko`rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi.

- O`zbekistonning eng zaif tarkibiy qismlari bojxona (140-o`rin) va xalqaro transport (120-o`rin) hisoblanadi.

- Bojxona va chegara rasmiylashtiruvini samaradorligi bo`yicha O`zbekiston 26 pog`onani pasaytirdi.

So`nggi yillarda O`zbekiston transport infratuzilmasini rivojlantirishga, shu jumladan avtomobil transporti tizimini yanada takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga katta e`tibor qaratmoqda. Respublikaning barcha mintaqalarining fazoviy aloqasi ta`minlandi, yo`lovchilar va yuk transporti sohasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan xalqaro standartlarga muvofiq yo`l harakati xavfsizligi va qulayligini oshirish. Aynan ushbu keng ko`lamli ish Jahon bankining umume`tirof etilgan xalqaro reytingida aks etadi.

Bugungi kunda O`zbekiston transport tizimi turli xil transport turlari va multimodal transportni rivojlantirish, tabiiy to`siqlarni bartaraf etish va transportni boshqarishni takomillashtirish o`rtasida samarali o`zaro aloqalarni o`rnatish yo`lida bormoqda.

Keyinchalik rivojlangan mamlakatlarning transport tizimlari bilan yanada integratsiyalashuvi va transport sohasini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari transport xizmatlari, infratuzilma va samarali logistikani rivojlantirishga kompleks yondashishni talab qiladi.

Hozirda reytinglar islohotlarning borishi va samaradorligini obyektiv barometridir. Bundan tashqari, xalqaro reytinglar ko`rsatkichlarni yaxshilash uchun mamlakatlar o`rtasida raqobat ruhini rag`batlantiradi.

Xalqaro reytinglar va indeksning o`zaro bog`liqligi institutsional rivojlanish mamlakat va uning fuqarolari iqtisodiy farovonligiga ta'sir etayotganini, innovatsiyalar va axborot texnologiyalarining rivojlanishi mamlakat hayotining siyosiy va huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sir ko`rsatishi mumkinligini yana bir bor isbotlamoqda⁷⁸.

Natijalarga qaraydigan bo`lsak, sohani rivojlantirish uchun hali juda ham ko`p ishlar qilinishi kerakligini tushunish qiyin emas. Bunda asosan chegara va mamlakat hududiga bojxona jarayonlari samaradorligini oshirish, soha mutaxassislarini ko`paytirish, tizimga innovatsion yondashuvni tatbiq qilish muhim.

M.Fayziev o`z maqolasida logistika samaradorligining iqtisodiyotga ta'siri haqida ham to`xtalib o`tib, logistika samaradorligini oshirish transport-jo`g`rofiy noqulay joylashgan va eng arzon transport turi bo`lgan dengiz portlariga to`g`ridan-to`g`ri, hatto chegaradosh davlatlar orqali ham chiqish imkoniyatiga ega bo`lmagan bizning mamlakatda ayniqsa dolzarb ekanligini ta'kidlaydi⁷⁹. Unga ko`ra, respublikamiz eksportining katta qismini qishloq xo`jaligi mahsulotlari va xom-ashyo tashkil etadi. Ular ishlab chiqarish mahsulotlari (manufactured

⁷⁸ <https://review.uz/oz/post/infografika-uzbekistan-v-indekse-effektivnosti-logistiki-2016-2018-gg>

⁷⁹ <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/31/logistics>

goods) qaraganda transport birligiga nisbatan (masalan bir tonna paxta va bir tonna tayyor yuqori sifatli to`qimachilik mahsuloti) juda arzondir. Bundan kelib chiqadiki, eksport mahsulotlarimizning so`nggi narxlarida transport xarajatlarining foiz ulushi yuqori va bu logistika samaradorligi iqtisodiyotimizda rivojlangan davlatlarga taqqoslaganda muhimroq ekanligini anglatadi.

Muallif samarador logistika tizimini tushuntirish uchun juda oddiy ikki misolni keltirib o`tadi⁸⁰:

1. Mikroiqtisodiy misol. Tasavvur qiling, siz qaysidir viloyatda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan shug`ullanasiz. Xaridorlaringiz shaharlardagi bozorlar, supermarketlar, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari bo`lishi mumkin. Toza mahsulotni oxirgi xaridorga etib borguniga qadar sizning bir necha kungina vaqtingiz bo`ladi. Shu vaqt ichida hosilni yig`ib olishingiz, qadoqlashingiz, transport vositasiga yuklab, xaridorga etkazishingiz kerak.

Zanjirning biror-bir nuqtasida muammo paydo bo`lishi foydaning kamayishiga va hatto tadbirkorning zararga kirishga sabab bo`lishi mumkin. Bunga mahsulotni vaqtida yig`ib olmaslik, noto`g`ri qadoqlash, noto`g`ri saqlash, transport vositasining vaqtida mavjud emasligi/nosozligi yoki keraklicha jihozlanmagani va shunga o`xshash ko`plab muammolar sabab bo`lishi mumkin.

2. Makroiqtisodiy misol. Tasavvur qiling, siz eksportga mo`ljallangan qishloq xo`jaligi mahsuloti etishtirasiz va mahsulotingizni Evropa bozoriga, masalan, Germaniyaga olib chiqmoqchisiz. Bunda avvalambor Germaniyada shu mahsulotga bo`lgan talab darajasini, taklif qilinayotgan narxlarni, mahsulotingizning tannarxini, uning eksport va transport xarajatlarini hisoblab chiqasiz. Aynan shu mahsulotni Germaniyaga etkazib beradigan Ispaniya, Italiya, Polsha kabi Evropa davlatlari etkazib beruvchilari sizga raqobatbardosh hisoblanadi. Ishchi kuchi arzonligi, mahsulot sifati, uning xilma-xilligi sizning mahsulotingizning afzalliklari bo`la olsa-da, transport xarajatlari yuqoriligi mahsulotning oxirgi narxlariga katta ta`sir ko`rsatadi. Qishloq xo`jaligi

⁸⁰ O`sha manba

mahsulotlarini tashishda qo'llanadigan muzlatgich-avtotransportida bir kg mahsulotni O'zbekistondan Germaniyaga qilingan transport xarajati hozirgi paytda 40–50 evro tsent atrofida, agar bu turdagi mahsulotlar uchun chakana savdodagi narxlar 50-60 sentdan 2-3 evrogachaligini hisobga olsak, mahsulotimizning qimmat transport sababli raqobatbardoshligini qanchalik yo'qotishi mukinligini ko'ramiz.

M.Zayniev maqolasida logistika samaradorligini yaxshilash nima uchun aynan bugungi kunda dolzarb ekanligiga ham to'xtalib o'tadi va quyidagilarni ta'kidlaydi⁸¹:

Ba'zi rivojlangan davlatlar oxirgi yillarda iqtisodda proteksionizm siyosatini olib borayotgan bo'lsalar-da (masalan AQSHning hozirgi hukumati), amalda dunyo iqtisodiyotida globallashuv jarayoni sekinlashgani yo'q. Dunyo bozorida katta o'zgarishlar nafaqat O'zbekistonning, balki butun mintaqamizning ro'y berayotgan o'zgarishlarga tayyor bo'lishlarini talab etadi. Dunyo hamjamiyatida mavqei o'sib borayotgan Xitoy, Hindiston kabi davlatlarning global iqtisoddagi o'rnini ham oshmoqda. Mintaqamizning Osiyoni Evropa bilan bog'lagan muhim transport karidorining markazida ekanligi biz uchun ham chorlov va ham imkoniyat bo'lib hisoblanadi. Bir Makon – Bir Yo'l kabi loyihalar hamkorlar bilan birgalikda infratuzilmamizni yaxshilashga, transport va logistikaga aloqador bir qancha sohalarni rivojlantirishga imkoniyat, shu bilan birga mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun raqobatbardoshlikni oshirish yo'lida sinov bo'ladi. Respublikamiz mintaqamizdagi eng yaxshi transport infratuzilmasiga ega. Davlatimiz hududidan 42530 km avtomobil yo'li, 4500 km temir yo'li (har 10000 km ga 150 km) o'tadi va mamlakatimizni mintaqaning muhim transport koridorlariga ulaydi. O'zbekistonning tranzit davlati sifatida ayniqsa Afg'oniston Islom Respublikasiga (Trans-Afg'on xalqaro transport karidori) kirish va Afg'oniston orqali Bandar Abbas va Chobahor portlariga chiqish imkoniyati Tojikiston Respublikasiga kirishi muhim hisoblanadi. Mohiyati yildan yilga ortib borayotgan Andijon- O'sh – Saritosh – Irkeshtom – Qashqar koridori dunyo

⁸¹ <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/31/logistics>

tarixidagi eng buyuk loyihalardan bo`lgan va Xitoy Xalq Respublikasi tomonidan taklif qilingan «Bir makon – bir yo`l» (Belt and Road Initiative – BRI) da munosib qatnashish uchun va Xitoyni mamlakatimiz hududidan o`tuvchi yo`llar orqali boshqa mintaqalar bilan bog`lash xizmat qiladi. Xitoyning TIR konventsiyasiga qo`shilishi, Qirg`iziston orqali Xitoydan O`zbekistonga avtotransport orqali amalga oshirilgan ilk transport tranzit davlati sifatidagi potentsialimiz yuqoriligidan dalolatdir. Bu potentsialdan foydalangan holda Turkmaniston orqali Eron va Turkiyaga, Kavkaz davlatlariga, Bojxona Ittifoqi davlatlari orqali Evropaga chiqishimiz mumkin. Bu imkoniyatlar ayniqsa iqtisodimiz uchun bevosita va bilvosita ishlab chiqarish, transport, infratuzilma, turizm sohalarida minglab ish o`rinlari yaratishi mumkin.

Muallifning fikriga ko`ra, LPIning yaxshilash uchun soha mutaxassisleri bilan birlashib, alohida qismlardan iborat yagona (aviatashuvlar, avtotashuvlar, temir yo`li tashuvlari, omborxonalar xizmatlari) dastur ishlab chiqilishi kerak. Dastur sohaga kadrlar tayyorlash, mavjud kadrlarning malakasini oshirish, infratuzilmalarni yaxshilash kabi yo`nalishlarda bo`lishi kerak. Bundan tashqari, bojxona xizmatlarida IT qo`llanilishi darajasini oshirish, bojxona va chegara postlaridagi jarayonlarni doimiy monitoring qilish, bojxona va soha vakillari bilan ochiq muloqot yaratish orqali paydo bo`layotgan muammolarni tezkor hal qilish, ularning kelajakda takrorlanishining oldini olish kabi chora-tadbirlar o`tkazilishi kerak. Mamlakatimizda bo`layotgan ijobiy o`zgarishlar logistika va transport sohasida ham yaqin kunlarda ijobiy ta`sirini ko`rsatadi. Chunki o`sib borayotgan iqtisodning yuki eng avvalo logistika tizimiga tushadi. Shunday ekan mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish, import xarajatlarini kamaytirish, mahalliy bozordagi transport xarajatlarini minimallashtirish va oqibatda xalqimiz farovonligini yanada oshirish aynan logistika samadorligiga bog`liq⁸².

Tahlillarimizni davom ettirgan holda ikkala obyekt bo`yicha ham rentabellik tahlilini amalga oshirishga harakat qilamiz. Chunki yuqorida ta`kidlab o`tdikki,

⁸² <https://www.gazeta.uz/uz/2019/05/31/logistics>

rentabellik xususida ham turli qarash va yondashuvlar mavjud bo`lib, doimiy munozara va tortishuvlar markazida bo`lib kelgan. Shu bois, bizning fikrimizcha, mazkur masalani aynan logistik korxonalar misolida o`rganish hamda tegishli xulosalar shakllantirish maqsadga muvofiq.

Rentabellikning asosiy ko`rsatkichlari sifatida quyidagi 4 ta ko`rsatkich keltirilgan⁸³:

1. Aktivlar rentabelligi;
2. Sotuv rentabelligi;
3. Operatsion faoliyat rentabelligi;
4. Xususiy kapital rentabelligi;

Bundan tashqari mazmur manbada qo`shimcha rentabellik ko`rsatkichlari ham keltirilgan bo`lib, mualliflar ularga asosiy vositalar rentabelligi, xodimlar rentabelligi, aktivlarning bazaviy foydalilik koeffitsienti, investitsiyalardan kapital rentabelligi, jalb qilingan kapital rentabelligi, jami aktivlar rentabelligi, biznes aktivlari rentabelligi, sof aktivlar rentabelligi, ishlab chiqarish rentabelligi, marja rentabelliklarini kiritib. Ushbu darslikda rentabellikning hamma ko`rsatkichlari bular emasligini ifoda etuvchi va boshqa ko`rsatkichlar degan izoh ham keltirilgan. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, rentabellik judayam keng tushuncha bo`lib, biz faqat asosiy deb olingan rentabellik ko`rsatkichlari bilan cheklanamiz.

Manbada keltirilishicha, aktivlar rentabelligi quyidagicha aniqlanadi:

Aktivlar rentabelligi=Sof foyda/Aktivlarning o`rtacha yillik qiymati.

Mazkur darslik 532-betida qilingan hisob kitobga ko`ra, sof foyda ko`rsatkichi korxonalar moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot (2-shakl) 270-satridan olinadi. Aktivlar o`rtacha yillik qiymati esa, buxgalteriya balansi 010-satrida yil boshi va yil oxiridagi summalarining o`rtachasi.

Ikkinchi rentabellik ko`rsatkichi, ya`ni, sotuv rentabelligi esa quyidagicha aniqlanishi keltirilgan:

⁸³ M.YU. Raximov, N.N. Kalandarova. Moliyaviy tahlil. Darslik. – Toshkent.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. 530-532.

Sotuv rentabelligi Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishning yalpi foydasi/sotishdan sof tushum.

Mazkur formulaga va darslik 532-betidagi hisob kitoblarga qaraydigan bo`lsak, mahsulot (ish, xizmat)lar sotishning yalpi foydasi moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot (2-shakl) 030-satridan olinadi, sotishdan sof tushum esa, ushbu hisobot shaklining 010-satridan olinadi.

Uchinchi rentabellik turi, operatsion faoliyat rentabelligi (ko`pchilik manbalarda asosiy faoliyat rentabelligi deyilgan) quyidagicha aniqlanishi keltirilgan:

Operatsion faoliyat rentabelligi Operatsion foyda/ sotishdan sof tushum.

Ushbu formulani ham izohlaydigan bo`lsak, darslikda keltirilgan ma`lumotlar va 532-betidagi hisob kitoblarga ko`ra, operatsion foyda sifatida moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot (2-shakl) 100-satrida asosiy faoliyatning foydasi olinib, sotishdan sof tushum esa, ushbu hisobot shaklining 010-satridan olinadi.

Oxirgi asosiy ko`rsatkich sifatida e`tirof etilgan, xususiy kapital rentabelligi quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi=Sof foyda/xususiy kapital.

Formulaga amaliy ma`lumotlarni qo`yishdan oldin, ushbu tenglik ma`lumotlar manbaini ham izohlab ketamiz. Bunda, sof foyda ko`rsatkichi korxonada moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot (2-shakl) 270-satridan olinadi. Xususiy kapital esa, buxgalteriya balansi 480-stardan olinadi.

Yuqoridagi formulalar asosida obyektlarimiz bo`yicha rentabellikning asosiy ko`rsatkichlarini tahlil qilib, natijasi bo`yicha o`z xulosalarimizni shakllantiramiz («3.2-jadvalga qarang»). Biz tomonimizdan darslikdagi formulalar asos qilib olindi, biroq ayrim me`yoriy-hujjatlar hamda boshqa manbalarda rentabellikning turlari va aniqlash formulalari turlicha keltirilgan.

3.2-jadval

LUCKY MEN korxonasi asosiy moliyaviy ko`rsatkichlari tahlili⁸⁴

t/r	Ko`rsatkichlar nomi va axborot manbai	O`tgan yili	Hisobot yili	Farqi (Q,-)	O`sishi
1.	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr)	825984,89	520242,67	-305742	62,98
2.	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi (2-shakl, 020-satri)	540103,42	561 636,37	21532,95	103,99
3.	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishning yalpi foydasi (2-shakl, 030-satr)	285881,47	-41393,7	-327275	-14,48
4.	Asosiy faoliyatning foydasi (2-shakl, 100-satri)	285875,99	-105887,3	-391763	-37,04
5.	Foyda solig`i to`lagunga qadar foyda ((2-shakl, 240-satri))	286142,61	-105166,2	-391309	-36,75
6.	Sof foyda (2-shakl, 270-satri)	253092,55	-126004,7	-379097	-49,79
7.	Aktivlarning o`rtacha yillik qiymati (1-shakl, 010-satri o`rtachasi)	24875,78	957721,56	932845,8	3850,02
8.	Xususiy kapital	192407,18	109273,76	-83133,4	56,79

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko`rishimiz mumkinki, mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushum o`tgan yilgiga nisbatan sezilarli kamaygan bo`lib, bu kamayish hisobiga 38 foiz o`tgan yildagidan kam bo`lgan. Ushbu kamayishni korxonada hisobot ma'lumotlarini tahlil qilgan holda koronavirus pandemiyasiga to`g`ridan to`g`ri bog`lash mumkin. Chunki, haqiqatda 2020-yildagi ko`rsatkichda pasayish kuzatilib, aynan tashish xizmatlaridan tushum etarli bo`lmagan. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi esa, bir muncha oldingi yilgiga qaraganda oshganligini ko`rishimiz mumkin. E`tibor qaratadigan bo`lsak, mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushum o`tgan yilga qaraganda 38 foizga kamaygan bo`lsa, sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi esa, 3 foizga o`sgan. Demak, ko`rsatilgan xizmatlar tannarxida uncha katta bo`lmagan o`zgarish bo`lib, uni realizatsiya qilish narxida pasayish kuzatilgan. Korxonada mahsulot (ish, xizmatlar)

⁸⁴ Korxonada hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son qarori "Davlat ulushi bo`lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to`g`risidagi Nizom, 3a-ilova 3-ko`rsatkichlari asosida shakllantirilgan.

sotishning yalpi foydasi yuqoridagilarga mos ravishda o`zgarmagan. Ya'ni, bu ko`rsatkich oldingi yilga nisbatan, 14,5 foizga kamaygan.

Korxonada asosiy faoliyatining foydasida ham pasayish kuzatilib, birinchidan 2020-yilda mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushum kamayib, sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi o`zgarmaganligi hisobiga bo`lgan bo`lsa, ikkinchidan hisobot ma'lumotlaridan qaraydigan bo`lsak, 2020-yilda davr xarajatlarining sezilarli bo`lishi, hatto oldingi yilga qaraganda bir necha barobar oshishi, aksincha, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari yo`qligi hisobiga shunday pasayish kuzatilgan.

O`z-o`zidan korxonada moliyaviy faoliyat yoki operatsiyadan daromadlar olinmaganligi, shu yo`nalishda xarajatlarni qilinmaganligi foyda solig`i to`lagunga qadar foyda summasi va asosiy faoliyatining foydasini bir xil summada bo`lishini ta'minlagan. Korxonada 20,8 million so`m soliqlar hisoblanishi evaziga sof zarar summasi yana oshgan.

Korxonada hisobot ma'lumotlaridan bizni eng qiziqtirgan masala, bu aktivlar summasining keskin ortganligi va buni evaziga aktivlar o`rtacha yillik qiymatining ham o`sganligidir. Bu ko`rsatkich yil boshiga nisbatan, 38,5 barobarga oshgan.

Shu bilan birga xususiy kapital summasida o`tgan yildagiga nisbatan pasayish kuzatilgan. Bunda o`tgan yili taqsimlanmagan foyda summasi yuqori bo`lishi va joriy yilda zara summasi katta bo`lganligi hisobiga xususiy kapitalning summasida keskin o`zgarish sodir bo`lgan. Aslida bu vaziyat ham tabiiy holda sodir bo`lgan.

Umuman olganda korxonada bo`yicha o`tgan yilga nisbatan pasayish kuzatilgan, biroq bu pasayish yuqorida ta'kidlab o`tganimizday koronavirus pandemiyasi bo`lganligi bois, qandaydir xavotirlarni keltirib chiqarmaydi. Bunday keyingi faoliyatda xarajatlarni imkon qadar kamaytirish, optimallashtirish va daromadlarni oshirishga harakat qilish lozim.

Mazkur jadval asosidagi ma'lumotlar asosida korxonada bo`yicha rentabellikning asosiy ko`rsatkichlarini ko`rib chiqadigan bo`lsak, quyidagicha natijaga erishamiz («3.3-jadvalga qarang»).

LUCKY MEN korxonasi rentabellik ko`rsatkichlari tahlili⁸⁵

t/r	Ko`rsatkichlar nomi va axborot manbai	O`tgan yili	Hisobot yili	Farqi (Q,-)	O`sishi
1.	Aktivlar rentabelligi	10,17	-0,13	-10,31	-1,29
2.	Sotuv rentabelligi	0,35	-0,08	-0,43	-22,99
3.	Operatsion faoliyat rentabelligi	0,35	-0,20	-0,55	-58,81
4.	Xususiy kapital rentabelligi	1,32	-1,15	-2,47	-87,66

Korxonada asosiy rentabellik ko`rsatkichlari tahlili amalga oshirilganda, ko`rdikki, aktivlar rentabelligida keskin o`zgarishlar sodir bo`lgan. Ya'ni, o`tgan yili aktivlar rentabelligi va joriy davrdagi rentabelligi o`rtasida juda katta farq mavjud. Sotuv rentabelligi, operatsion faoliyat rentabelligi, xususiy kapital rentabelliklari ham mos ravishda pasaygan.

Bu jadval ma'lumotlaridan shunday xulosa qilish mumkinki, rentabellik ko`rsatkichlarini olimlar tomonidan oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda ko`rsatilganiday moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot yoki buxgalteriya balansini, umuman olganda moliyaviy hisobot shakllari ma'lumotlari asosida aniqlash ijobiy natija bermaydi. Buning sababi, birinchidan korxonada qaysi faoliyatdan foyda olishi yoki zarar ko`rishidan qat'i nazar rentabellikka o`z ta'sirini o`tkazsa, ikkinchidan o`tgan yillardagi natijalar ham bu yilgi rentabellikka o`z ta'sirini o`tkazadi. Ayniqsa, xususiy kapital tarkibidan ustav kapitali past bo`lgan subyektlarda xususiy kapital rentabelligini aniqlashda yanayam ehtiyotkor bo`lish tavsiya etiladi. Bunda xususiy kapital summasidagi o`tgan yillardagi qoplanmagan zarar hisobidagi yo`qotish, joriy yilda ham xususiy kapitalni rentabelli emas degan xulosa chiqarishga sabab bo`ladi.

Bizning fikrimizcha, xususiy kapital joriy yildagi rentabelligini aniqlashda o`tgan yillarda ko`rilgan zarar inobatga olinmasligi kerak. Agar bu zarar inobatga olinsa, bir yil emas, yillar davomida oldingi zarar hisobiga xususiy kapital rentabelligi minus ko`rsatkich bilan chiqaveradi.

⁸⁵ Korxonada hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

1-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standartida buxgalteriya hisobotlarini davriyligi va ularni qiyoslash bilan bog`liq masalalar keltirilgan bo`lib, unga ko`ra, tadbirkorlik subyekti moliyaviy hisobotlarning (jumladan qiyosiy ma`lumotni) to`liq to`plamini kamida yillik asosda taqdim etishi lozim. Agar tadbirkorlik subyekti o`zining hisobot davri oxirini boshqa sanaga o`zgartirsa va bir yilga nisbatan uzoqroq yoki qisqaroq davr uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etsa, tadbirkorlik subyekti moliyaviy hisobotlar qamrab olgan davrni ochib berishi va unga qo`shimcha tarzda uzoqroq yoki qisqaroq davri tanlanishining sababi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan summalar to`liq tarzda qiyoslanuvchan emasligi faktini ochib berishi lozim⁸⁶.

Odatda, tadbirkorlik subyekti bir me`yorda bir yillik davr uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlaydi. Biroq, amaliy sabablar tufayli, ayrim tadbirkorlik subyektlari, davr oralig`i uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etishni afzal ko`radilar. 1-sonli moliyaviy hisobotning xalqaro standarti ushbu amaliyotni taqiqlamaydi.

MHXSlar ruxsat beradigan yoki talab etadigan boshqa hollardan tashqari, tadbirkorlik subyekti joriy davrning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan barcha summalar bo`yicha oldingi davrga nisbatan qiyosiy ma`lumotlarni taqdim etishi lozim. Tadbirkorlik subyekti izohlovchi va tavsifiy axborot bo`yicha ham qiyosiy ma`lumotlarni keltirishi lozim, agarda u joriy davrning moliyaviy hisobotlarini tushunish uchun o`rinli bo`lsa⁸⁷. Tadbirkorlik subyekti, kamida, ikkita moliyaviy holat to`g`risidagi hisobotlarni, ikkita foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to`g`risidagi hisobotlarni, ikkita alohida foyda yoki zarar to`g`risidagi hisobotlarni (agarda taqdim etiladigan bo`lsa), ikkita pul oqimlari to`g`risidagi hisobotlarni va ikkita kapitaldagi o`zgarishlar to`g`risidagi hisobotlarni hamda tegishli izohlarni taqdim etishi lozim.

⁸⁶ 1-sonli Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti

⁸⁷ O`sha manba

Ba'zi holatlarda, oldingi davr(lar)ga oid moliyaviy hisobotlarda keltirilgan tavsifiy ma'lumotlar joriy davrda ham o`rinli bo`lishda davom etadi. Masalan, tadbirkorlik subyekti oldingi davrning oxirida noaniq bo`lgan va hanuz hal etilmagan yuridik tortishuvning tafsilotlarini joriy davrda ochib beradi. Foydalanuvchilar oldingi davr oxirida mavjud bo`lgan noaniqlik to`g`risidagi ma'lumotning ochib berilishidan va noaniqlikni hal etish davri mobaynida amalga oshirilgan choralar to`g`risidagi ma'lumotning ochib berilishidan manfaatdor bo`lishi mumkin.

Tadbirkorlik subyekti MHXSlar talab etgan minimal qiyosiy moliyaviy hisobotlarga qo`shimcha tarzda qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin, qachonki ushbu ma'lumotlar MHXSlarga muvofiq tayyorlangan bo`lsa. Ushbu qiyosiy ma'lumotlar bir yoki undan ko`proq hisobotlarni o`z ichiga olishi mumkin, ammo moliyaviy hisobotlarning to`liq to`plamini qamrab olishi shart emas. Bunday holat yuz berganida, tadbirkorlik subyekti ushbu qo`shimcha taqdim qilinadigan hisobotlar bo`yicha tegishli izohlarni taqdim etishi lozim.

Masalan, tadbirkorlik subyekti foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to`g`risidagi uchinchi hisobotni taqdim etishi mumkin (bunda, joriy davrni, oldingi davrni va bitta qo`shimcha qiyosiy davrni taqdim etgan holda). Biroq, tadbirkorlik subyektidan moliyaviy holat to`g`risidagi uchinchi hisobotni, pul oqimlari to`g`risidagi uchinchi hisobotni yoki kapitaldagi o`zgarishlar to`g`risidagi uchinchi hisobotni (ya'ni qo`shimcha qiyosiy moliyaviy hisobot) taqdim etish talab etilmaydi. Tadbirkorlik subyektidan moliyaviy hisobotlarga izohlarda ushbu qo`shimcha foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromadlar to`g`risidagi hisobotga tegishli qiyosiy ma'lumotlarni taqdim etish talab etiladi.

Yuqoridagilardan ko`rishimiz mumkinki, moliyaviy hisobotning xalqaro standarti talablarida ham ma'lumotlarni taqqoslash uchun qiyosiy ma'lumotlar bo`lishi lozim. Aks holda o`zgarishlarni o`sishi yoki kamayishi bo`yicha olib borilgan tahlil natijalariga ko`ra, biror xulosa chiqarib bo`lmaydi.

Bizning fikrimizcha, agar korxonada bir hisobot davridan kam faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, uning ko'rsatkichlariga baho berishda individual yondashish lozim. Shu bilan birga ikkinchi yil faoliyatini tahlil qilganda ham ko'rsatkichlar uchun oldingi yilda qilingan xarajatlar hisobga olinishi kerak. Buning sababi, ikkinchi yilda joriy foydaga erishgan korxonada aslida, bu foydaga erishish uchun oldinga yilda kattagina zarar bilan chiqqan bo'lishi mumkin.

Demak, qiyosiy ma'lumotlarni oldingi yillar bilan ham taqqoslash va uni tahlil qilish imkoniyati bo'lishi kerak. Aks holda tahlil natijalari ishonchli, ishlab chiqilgan xulosa va takliflar asosli bo'lmaydi.

Yuqoridagilarga ko'ra, biz tomonimizda obyektlarimiz bo'yicha qiyosiy ma'lumotlarni shakllantirish uchun o'tgan yildan oldingi yil ma'lumotlari asosida ham amalga oshirishga harakat qilamiz.

Bunda 2018-2021-yil hisobot yili sifatida olinib, tegishli ko'rsatkichlar tahlili mazkur 4 davr bo'yicha amalga oshiriladi («3.4-jadvalga qarang»).

3.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada 4-yillik faoliyati bir xil normada bo'lmagan. 2018-yilda korxonada tashkil topishi oqibatida asosan tashkiliy xarajatlar amalga oshirilishi hamda shu xarajatlarning hisobida taqsimlanmagan foyda o'rniga zarar bilan yillik hisobotda aks ettirilishi mazkur yil bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni past bo'lganini ko'rsatib turibdi.

2019-yilda esa, korxonada bir muncha barqaror va normal faoliyat yuritganligi ko'rinib turibdi. Bu bo'yicha yuqorida ham bir qancha fikrlar keltirib o'tdik. Biroq, 2020-yilda yana asosiy ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan. Shu bois, bunday holatda o'sish yuqori bo'lganligi yoki pasayish yuqori bo'lganligini tanqidiy o'rganish maqsadga muvofiq emas.

Agar, 2019-yilda faoliyat normal bo'lgan deydigan bo'lsak, unda 2018-yilgi qilingan xarajatlarni o'sha yilda asosiy faoliyat bilan bog'liq tushumlar bo'lmaganligi, ya'ni, faoliyat boshlanmaganligi bois, bu xarajatlarni ham 2019-yil uchun hisobga olish lozim. Chunki, haqiqatda 2019-yilgi natijaga erishishda 2018-yilda qilingan xarajatlarni o'zni yuqori.

3.4-jadval

LUCKY MEN korxonasi asosiy moliyaviy ko`rsatkichlari tahlili⁸⁸

t/r	Ko`rsatkichlar nomi va axborot manbai	2018	2019	2020	2021	2019-yil 2020-yilga nisbatan farqi (Q,-)	O`sishi
1.	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishdan sof tushum (2-shakl, 010-satr)	0	825984,89	520242,67	912534,16	-305742	62,98
2.	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxi (2-shakl, 020-satri)	0	540103,42	561 636,37	602358,45	21532,95	103,99
3.	Mahsulot (ish, xizmatlar) sotishning yalpi foydasi (2-shakl, 030-satr)	0	285881,47	-41393,7	310175,71	-327275	-14,48
4.	Asosiy faoliyatning foydasi (2-shakl, 100-satri)	-79136,99	285875,99	-105887,3	306258,87	-391763	-37,04
5.	Foyda solig`i to`lagunga qadar foyda ((2-shakl, 240-satri))	-79136,99	286142,61	-105166,2	307056,12	-391309	-36,75
6.	Sof foyda (2-shakl, 270-satri)	-99547,43	253092,55	-126004,7	298567,94	-379097	-49,79
7.	Aktivlarning o`rtacha yillik qiymati (1-shakl, 010-satri o`rtachasi)	6390	24875,78	957721,56	954221,23	932845,8	3850,02
8.	Xususiy kapital	-93773,86	192407,18	109273,76	912534,16	-305742	62,98

⁸⁸ Korxonaning hisobot ma'lumotlari asosida muallif tomonidan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son qarori "Davlat ulushi bo'lgan aktsiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risidagi Nizom, 3a-ilova 3-ko'rsatkichlari asosida shakllantirilgan.

